

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

KREDIT-IQTISOD FAKULTETI

“BANK HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

AXMEDOV BEHRUZ XABIBOVICH

**“AHOLI BO‘SH MABLAG‘LARINI BANKLARGA JALB
QILISHNING AHAMIYATI VA UNING BANK RESURSLARINI
OSHIRISHDAGI O‘RNI”**

5230700 - “Bank ishi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

Fakultet dekani

I. f. n. Saidov R.

“ _____ ” _____ 2017-yil

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Bank hisobi va audit” kafedrası mudiri

I. f. n. Umarov Z.

“ _____ ” _____ 2017-yil

Bitiruvchi: 5230700 –“Bank ishi”- ta’lim
yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Axmedov Behruz Xabibovich

Ilmiy rahbar: _____K. o‘qt. Ernazarov Normat Saparboevich

Toshkent -2017

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. MAMLAKATDA AHOLI PUL MABLAG‘LARINI BANKLARGA JALB ETISH VA UNING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI	7
1.1 Aholi jamg‘armalarining iqtisodiy mohiyati.....	7
1.2 Aholi bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb etishning huquqiy asoslari.....	13
1.3 Jamg‘armalar turlari va ularning bank resurslarini oshirishdagi ahamiyati.....	24
1-bob bo‘yicha xulosa.....	31
2-BOB. BANKLAR TOMONIDAN AHOLI BO‘SH PUL MABLAG‘LARINI JALB ETISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	32
2.1 “Ipoteka-bank” ATIB tomonidan depozit siyosatini amalga oshirish tartibi va tahlili.....	32
2.2 Banklararo raqobat sharoitida bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb etish amaliyoti tahlili.....	44
2.3 Aholi bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb etish bo‘yicha xorij tajribasi.....	51
2-bob bo‘yicha xulosa.....	56
3-BOB. “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASI”GA ASOSAN BO‘SH PUL MABLAG‘LARINI BANKLARGA JALB ETISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	58
3.1 Aholi bo‘sh pul mablag‘larini bank resurslarini oshirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.....	58
3.2 “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi”ni amalga oshirishda bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb etishni takomillashtirish yo‘llari	62
3-bob bo‘yicha xulosa.....	66
XULOSA VA TAKLIFLAR	68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	71
ILOVALAR	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Dunyo miqyosida shiddat bilan rivojlanib borayotgan moliya sektorida banklarning ahamiyati va ularning mamlakatlar iqtisodiyotida tutgan o‘rni tobora ortib bormoqda. Shu o‘rinda ta’kidlashimiz mumkinki, 1990-yil boshida banklar tomonidan mijozlarga ko‘rsatilgan an’anaviy va yangi bank xizmatlari hajmi 70 ga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, ushbu miqdor 400 dan oshadi.

Banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan an’anaviy xizmatlardan biri bu, albatta, yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh pul mablag‘larini bank faoliyatiga jalb qilishdir. Ushbu sohada mamlakatimiz O‘zbekistonda sezilarli yutuqlarga erishildi. Shu bilan birga, ushbu sohadagi rivojlanishni rag‘batlantirish uchun bir qator muammolar borki, ular haqida so‘z yuritish va tahlil qilishni biz ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilovchi omillar sifatida yoritdik.

Agarda aholi bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb qilish borasida erishilgan yutuqlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularning banklarga qo‘ygan pullari (omonatlari) ning yillar davomida sezilarli darajada oshganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Xususan, “faqat aholining banklardagi omonatlari hajmi 2000-yilda 45,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2005-yilda 449,5 mlrd. so‘mni, 2010-yilda 4,5 trln. so‘mni tashkil etganini sezilarli yutuqlardan biri sifatida qayd etish mumkin”¹. Shu bilan birga, tijorat banklarning jami depozitlari qoldig‘ining yillar davomida o‘zgarishiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning miqdori 2011-yilda 8.7 trln. so‘mni tashkil etib, 2016-yilda “bank mijozlariga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash va omonat va depozitlarning yangi jozibador turlarini joriy etish evaziga tijorat banklar tomonidan jalb etilgan yalpi depozitlar hajmi 2015-yilga nisbatan 25,2 foizga oshgan holda 2016-yilda 44,6 trln. so‘mni tashkil etdi”². Ushbu jalb qilingan mablag‘lar banklar resurs bazasining ko‘payishiga xizmat qilgan holda iqtisodiyot real sektoriga yo‘naltirilgan kreditlar

¹ B. B Parpiyev. “Tijorat banklari depozitlariga bo‘sh pul mablag‘larini jalb etishda marketing faoliyati samaradorligini oshirish“. Monografiya. Toshkent-“Iqtisodiyot”-2014. -8-9-betlar

² Monetar siyosatning 2017-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. “Bank axborotnomasi”. No:6 09.02.2017-yil

hajmini 2015-yilga nisbatan 25,1 foizga oshib, 2016-yilda 53 378,5 mlrd. soʻmga yetishiga olib keldi³. Shuni ahamiyatliki, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning 86,8 foizi ichki manbaalar, yaʼni bankning oʻz va jalb qilingan resurslari hisobidan moliyalashtirildi.

Mamlakatimizda banklar uchun yaratilgan qulayliklar va imtiyozlar bank tizimining yanada rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. “Bugun mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan aholiga milliy va chet el valutasida cheklanmagan miqdorda va muddatlarda 250 dan ortiq omonat turlari taklif etilmoqda. Depozitga qoʻyilayotgan mablagʻlarning miqdori oxirgi 5 yilda 3,5 marotabaga, 2016–yilda 2,6 foizga ortdi”⁴. Ammo, yuqorida keltirilgan muvaffaqiyatli natijalarga mahliyo boʻlmasdan, aholi boʻsh mablagʻlarini banklarga jalb qilish borasida bir qator amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlar borki, aynan, ular mazmunini ochib berish ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini yanada oshishiga xizmat qiladi. Xususan, koʻpgina mamlakatlar bank amaliyotida allaqachon yangilik boʻlmay qolgan “onlayn depozit”larning hali ham mamlakatimiz banklari amaliyotiga joriy etilmayotganligi, banklar tomonidan amaliyotga kiritilgan omonatlar toʻgʻrisida tushunchalarni mamlakatning barcha turdagi aholisiga tanishtirish boʻyicha zamonaviy marketingdan toʻliq holatda foydalanilmayotganligi, aholida mavjud boʻsh mablagʻlarni banklarga jalb qilishda rasmiylashtirilishi kerak boʻlgan hujjatlarning koʻpligi va buning natijasida mijoz omonatini bankka qoʻyishida ortiqcha vaqt talab qilinayotganligi, shuningdek, 2017-yildan boshlab Oʻzbekiston boʻylab aholining banklardan kredit olishga boʻlgan talabini yanada ortib borayotganligini hisobga olgan holda, banklarning qoʻshimcha resurslarga boʻlgan ehtiyojini qondirishda aholi boʻsh mablagʻlaridan foydalanish yoʻllarini takomillashtirishni tashkil etish masalalari hamda ushbu masalaning yechimi boʻyicha berilayotgan takliflar ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini aniq belgilaydi.

³ Monetar siyosatning 2017-yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari. Bank axborotnomasi.No:6. 09.02.2017-yil

⁴ Akromov B. “Aholi omonatlarini jalb qilishda faol banklar”. “Bank axborotnomasi”. 09.02.2017-yil. -12-bet

Tadqiqotning predmeti. Aholi bo‘sh mablag‘larini banklarga jalb qilish borasidagi mavjud holat, uning iqtisodiy huquqiy asoslari hamda ushbu mablag‘larning bank resurslarini oshirishdagi ahamiyatini oshirish bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida so‘nggi yillarda aholi bo‘sh pul mablag‘larini bank amaliyotiga jalb qilish bo‘yicha ahamiyatli yutuqlarga erishib kelayotgan “Ipoteka -bank” ATIB tanlandi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasi banklari amaliyotida aholi bo‘sh pul mablag‘larini bank faoliyatiga jalb qilish bo‘yicha olib borilgan ishlar, uning davlat tomonidan qo‘llab - quvvatlashga qaratilgan huquqiy chora - tadbirlar hamda aholi bo‘sh pul mablag‘larini bank resurslarini oshirishdagi rolini ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganishdan bitiruv malakaviy ishining maqsadini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqqan holda tadqiqot ishining vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- Aholi jamg‘armalarining iqtisodiy mohiyatini ochib berish;
- Aholi bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb etishning O‘zbekistonda yaratilgan huquqiy asoslariga tavsif berish;
- Jamg‘armalar turlari va ulardan foydalangan holda ularni bank resurslarini oshirishdagi rolini o‘rganish;
- O‘zbekistonda banklar tomonidan aholi bo‘sh pul mablag‘larini jalb etish bo‘yicha amaldagi holatni tahlil etish;
- Aholi bo‘sh pul mablag‘larini jalb etish bo‘yicha xorij mamlakatlari tajribasini yoritish;
- Aholi bo‘sh pul mablag‘larini bank resurslariga jalb qilishdagi mavjud muammolarni o‘rganish hamda ularni bartaraf etish chora - tadbirlarni yoritish;
- “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda aholi bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb etishni takomillashtirish yo‘llari yoritish.

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. Aholi bo'sh mablag'larini banklarga jalb etishning ahamiyati va uning bank resurslarida tutgan o'rni bo'yicha o'zining nazariy xulosalari va qarashlari bilan muhim hissa qo'shgan xorijlik olimlar tomonidan juda ko'p o'rganilgan hamda ushbu bitiruv malakaviy ishini yoritishda ularning tadqiqot ishlaridan va nazariyalaridan keng foydalanildi. Ushbu mavzu bo'yicha O'zbekistonda aholi bo'sh mablag'larini banklarga jalb qilish, ularning qaytarilishini kafolatlanganligi hamda ushbu manbaalarning bank resurslarini oshirishdagi o'rni to'g'risida Respublikaning bir qator iqtisodchi olimlarining tadqiqot ishlari ham o'rganildi. Yuqoridagi barcha iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot - izlanishlarning mazmuni shuni ko'rsatmoqdaki, barcha aholi bo'sh mablag'larini banklarga jalb qilish amaliyoti bo'yicha yagona universal metod mavjud emas. Chunki, ushbu sohada samarali natijalarga erishilishi mamlakatdagi mavjud makroiqtisodiy omillarning aholi moliyaviy va iqtisodiy holatiga ta'siri, aholining moliyaviy savodxonlik darajasi, mamlakatdagi banklarning rivojlanganlik darajasi va xalqning ularga bo'lgan ishonchining har bir mamlakatda farqlanishi kabi va boshqa omillarning bir - biriga o'xshamasligi ushbu sohada jiddiy, ilmiy izlanishlar olib borilishi kerakligini taqozo etadi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob va ular bo'yicha qisqacha xulosalar, umumiy xulosalar hamda ular bo'yicha takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Bitiruv malakaviy ishida 10 ta rasm va 1 ta jadvaldan foydalanilgan bo'lib, ularning barchasi II bob, ya'ni "Banklar tomonidan aholi bo'sh pul mablag'larini jalb etishning amaldagi holati tahlili"ni yoritish maqsadida foydalanilgan.

1-BOB. MAMLAKATDA AHOLI PUL MABLAG‘LARINI BANKLARGA JALB ETISH VA UNING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Aholi jamg‘armalarining iqtisodiy mohiyati

Jamg‘armalar daromad manbaidan kelgan tushumning sarflanmaydigan va yig‘ib boriladigan qismidir. Pulni jamg‘arishning ko‘rinishlari sifatida ularni bankda depozit (omonat) ga qo‘yish, pensiya va investitsiya fondlariga joylashtirish yoki naqd shaklda jamlab borishni uchratish mumkin. Jamg‘armaga ega bo‘lish uchun, o‘z - o‘zidan ma‘lumki, xarajatlarni ham kamaytirish lozim bo‘ladi. O‘z navbatida, kamaytirilishi lozim bo‘lgan xarajatlarning asosiy qismini iste‘mol xarajatlari tashkil etadi. Chunki, “rivojlangan mamlakatlarda iste‘mol xarajatlari ixtiyordagi daromadning 90 foizdan ortiq qismini tashkil etadi”⁵.

Ushbu mavzuni to‘laroq yoritish uchun biz, avvalo, makroiqtisodiy nazariya va bank ishi nazariyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi - olimlarning fikrlari bilan tanishib chiqamiz.

Makroiqtisodiy nazariya bo‘yicha qaraganda, uy xo‘jaliklari tasarrufidagi daromad, birinchi navbatda, birlamchi iste‘molga va qolgan qismi jamg‘arish uchun ishlatiladi. Shu tariqa ayon bo‘ladiki, qancha ko‘p iste‘molga xarajat qilinsa, shuncha kam jamg‘arma hosil bo‘ladi. Aksar hollarda, aholi jamg‘armalarining hajmi ular oladigan doimiy daromad (ish haqi va boshqa doimiy tushumlar) miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, kam daromad oladiganlar uning ko‘proq qismini iste‘mol qilib, undan ortgan qismini jamg‘arishsa, yuqori daromad oladiganlarda esa buning aksi kuzatiladi. Ko‘rinib turibdiki, aholi daromadlarining hajmi iste‘mol va jamg‘arma orasidagi munosabatni belgilab beruvchi muhim omil bo‘lib qolmoqda. Ammo, iqtisodiyot va aholining ehtiyojlari o‘zgarib borgan sari, jamg‘armalar hajmiga boshqa omillarning ta‘siri sezilib bormoqda. Ya‘ni, “iste‘mol va jamg‘arish hajmiga tasarrufdagi daromad dinamikasidan tashqari quyidagi omillar, to‘g‘rirog‘i bu omillardagi o‘zgarishlar ham ta‘sir ko‘rsatadi:

⁵ Axmedov D. Q. va boshqalar. “Makroiqtisodiyot”. Darslik. T: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2004. -46-bet

- Uy xo‘jaliklari daromadlari;
- Uy xo‘jaliklarida to‘plagan boylik hajmi;
- Baholar darajasi;
- Iqtisodiy kutish;
- Iste‘molchilar qarzlari hajmi;
- Soliqqa tortish hajmi;”⁶

Ammo, shuni inobatga olish lozimki, yuqorida sanab o‘tilgan omillardagi o‘zgarishlarning aholi jamg‘armalari hajmiga ta‘siri doimiy daromadga ega aholining yoshi va jinsiga ko‘ra ham farqlanadi hamda makroiqtisodiy nazariyada, ko‘p hollarda, ushbu omil inobatga olinmaydi.

Aholi jamg‘armalariga bank ishi nazariyasi bo‘yicha qaraganda, bu aholining banklarda, pensiya va investitsiya fondlarida ma‘lum shartlar asosida joylashtirgan pul mablag‘larini anglatadi. Aholi jamg‘armalarini ularning egasiga foyda keltirishi hisobga olinsa bank depoziti(omonati)da yoki naqd ko‘rinishda saqlangan jamg‘arma mablag‘lar nisbatan kam riskli, ammo, investitsiya fondlariga joylashtirilganda esa yuqori riskli xarakterga ega bo‘ladi.

Ko‘pgina iqtisodiy adabiyotlarda keltirilganidek, jamg‘armalar va bankka ma‘lum muddatga qo‘yilgan pul mablag‘lari bir-biridan farq qiladi. Ya‘ni jamg‘arish bu o‘z aktivlari (mol-mulki, pul mablag‘i va h.z.lar.) ning hajmini mustaqil oshirish bo‘lsa, bankda ma‘lum shartlar asosida qo‘yilgan pul mablag‘lari esa alohida jamg‘arma hisobvarag‘ida saqlanadigan, tasdiqlovchi hujjatlar asosida ma‘lum muddatdan so‘ng ustama mablag‘ to‘lanadigan moliyaviy resurslarni anglatadi. Boshqa tomondan esa biri o‘zgaruvchan daromad keltiruvchi moliyaviy resurslar bo‘lsa, ikkinchisi esa doimiy daromad manbai sifatida qaraladi.

Xorij adabiyotlarida ushbu ikki tushunchani bir-biridan farqlash va adashtirib yubormaslik uchun shaklan bir-biriga o‘xshash bo‘lgan atamalar qo‘llanadi. Masalan, ingliz iqtisodiy adabiyotlarida jamg‘armalar “saving” deb atalsa, bankdagi pul mablag‘larini bildiruvchi atama esa “savings” deb yuritiladi.

⁶ Xadjayev X.S. Bakiyeva I.A va. Fayziyev Sh. Sh. “Makroiqtisodiyot”. O‘quv qo‘llanma.T: Iqtisod-Moliya. 2014. -65-bet

Quyidagi keltiriladigan sharhlarda esa biz, aynan, bank hisobraqamlarida saqlanadigan jamg'armalar haqida so'z yuritamiz.

Jamg'arma, ya'ni aholining pul mablag'larini yig'ish nazariyalari iqtisodiy fanlar rivojlanishining asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Mablag'larni jalb qilish nazariyalarini ularning kelib chiqish davriga ko'ra ajratganda, ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- 1) Keynschilikkacha bo'lgan davr (XVI-XVIII asrlar)
- 2) Keynschilik davri (XVIII asr oxiri-XIX asr boshi)
- 3) Zamonaviy davr (XIX asr-hozirgi davr)⁷

Yuqorida keltirilgan 3 ta davrning dastlabki ikkitasi uchun jamg'armalarning hosil bo'lishini ifodalovchi tenglama va undan kelib chiqadigan funksiyani tahlil qilish jamg'armalar nazariysining o'rganish predmeti bo'lib xizmat qildi. So'nggi, ya'ni jamg'armalar nazariyasini o'rganuvchi "zamonaviy davr"da esa jamg'armalar hajmiga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy ko'rsatichlar o'rganildi

Bank ishi nazariyasi iqtisodchilari va yuqoridagi 3 ta davr olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarning qiyosiy tahlili jamg'armalarning yagona manbai daromad ekanligini ko'rsatib berdi va jamg'armalarning daromadga bog'liqligini makroiqtisodiy nazariyadagi singari quyidagi formula orqali ifodalash mumkin bo'ldi:

$$G=d+K*D$$

Bu yerda:

G-jamg'arma miqdori

d-jon boshiga to'g'ri keluvchi daromadning o'rtacha miqdori;

K-daromad hisobidan jamg'arma o'sishining koeffitsienti;

D-barcha soliqlar to'langandan keyin qoladigan daromad miqdori.

Keynschilikkacha bo'lgan davrning buyuk ingliz iqtisodchisi Alfred Marshall jamg'arma tenglamasiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganib chiqdi hamda bu omillar qatoriga u birinchi navbatda madaniy, tarixiy, an'anaviy, urf odatlarni kiritgan bo'lsa, ikkinchi omillar qatoriga jamg'armalar bo'yicha to'lanadigan foiz

⁷ Azizov U.O'. va boshqalar. "Bank ishi". Darslik. T: Iqtisod-Moliya. 2016. -128-bet

stavkalarini hisobga olgan. Shunday qilib, jamg'armalarning hosil bo'lishi sabablarini o'rganib chiqqan A. Marshall "jamg'arilgan boyliklar bir nechta turli sabablarga bog'liq: an'analar, pulni sarflamaslikka odatlanish va kelajakdagi moliyaviy ahvol haqida qayg'urish hamda, eng muhimi, oilada shakllangan odatlar"⁸ deb ta'kidlaydi.

A. Marshall fikrlaridan kelib chiqadigan xulosa shuki, jamg'armaning hajmi olingan daromaddan qay darajada foydalanish, uni taqsimlash, jamg'aruvchining joriy davrda va kelajakda pulga bo'ladigan talabini hisobga olgan holda belgilanadi. Shu bilan birga, jamg'armalarga banklar tomonidan belgilanadigan foiz stavkasining yuqori bo'lishi, uning foydalilik darajasini yanada oshiradi va bu, hattoki, qo'shimcha iste'mol xarajatlarini qisqartirib, jamg'armaga ajratilgan mablag'larning oshishiga olib keladi, - deb ta'kidlaydi Alfred Marshall.

Jamg'arma nazariyasining keyingi bosqichidagi iqtisodchilar (J.M. Keynes, R.Goldemit va boshqalar) jamg'arma tenglamasi va undan kelib chiqadigan funksiyani ta'riflashda asosiy ko'rsatkichlar sifatida daromadlar summasi, iste'mol va jamg'armalarning o'zaro bog'liqligi, ular o'rtasidagi farqlar miqdorni o'rgandilar.

Angliyaning Kembridj iqtisodiyot maktabining yirik namoyondasi J. M. Keynes tomonidan olg'a surilgan jamg'arma funksiyasining xususiyatlari shundaki, u jamg'armalarni vujudga kelishida insoniy omillarni va boshqa sub'ektiv sabablarni ko'rib chiqdi va ushbu omillarni jamg'armani yuzaga kelishida hal qiluvchi rol o'ynaydi deb hisobladi. Keynes bunday qarorga kelishida quyidagi gipotezalarning hayotiy asoslanishini ko'rsatdi:

Birinchi, olingan daromadning tegishli qismini jamg'armaga yo'naltirishda 8 ta asosiy rag'batlantiruvchi omil sabab bo'ladi. "Bular: ehtiyotkorlik, oldindan ko'ra bilish, hisob - kitob qila bilish, yaxshilikka intilish, mustaqillik, tadbirkorlik, mag'rurlik va ziqnalikdir"⁹.

Haqiqatdan ham, yuqoridagi sabablar bugungi kunda ham sub'ektlarga xos

⁸ Marshall A. "Principles of political economy". Moscow. Progress. 1984. – 47-page

⁹ Azizov U.O'. va boshqalar. "Bank ishi". Darslik.T: Iqtisod-Moliya. 2016. -129-bet

ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Ikkinchidan, yuqorida sanab o‘tilgan omillar iqtisodiy sub’ektlarning hatti - harakatiga bog‘liq, boshqacha qilib aytganda, ularning daromadlari bilan teng miqdorda iste‘mol xarajatlari ham oshishi mumkin, ammo, jamg‘arma bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan birlamchi talab bu iste‘mol o‘shishining daromad o‘shishidan past yurishidir. Ya’ni har doim ham daromadning oshishi iste‘mol xarajatlarining oshishiga olib kelmaydi.

Uchinchidan, daromad o‘shishi bilan iste‘molning jami xarajatlardagi ulushi nisbatan kamayadi va jamg‘arma uchun mablag‘ ajratiladi.

J.M.Keynsning jamg‘armalar to‘g‘risidagi asosiy qarashlariga binoan aholi real daromadlarining o‘shishi bilan jamg‘armalar salmog‘ining oshishi to‘g‘ri mutanosiblikda ekanligini tasdiqladi. Biroq, bunda aholining jamg‘armalar qilishga intilishi hukumatning iqtisodiyotga faol aralashuvi orqali amalga oshishini ta’kidlaydi. Ammo unutmazlik lozimki, Keynsning ushbu g‘oyalari 1929-1933 - yillardagi “buyuk inqiroz” davrida hamda ikkinchi jahon urushidan keyingi o‘n yilliklarda AQSH, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda ahamiyatga ega bo‘ldi. Masalan, “1929 - 1933-yillardagi buyuk inqiroz Amerikalarga keltirdi, ishlab chiqarish yarmiga (50%) ga qisqardi hamda 17 mln odam ishsiz edi (25 %), 9 mln omonatchi kuyib qoldi”¹⁰. Bunday sharoitda faqatgina hukumatning iqtisodiyotga faol aralashuvi moliyaviy-iqtisodiy holatni o‘nglanishiga va aholining banklardagi jamg‘armalarini qaytarilishiga olib keldi.

Keynsdan keyingi davrdagi zamonaviy iqtisodchilar jamg‘armalar hajmini o‘zgartiruvchi makroiqtisodiy omillar ta’sirini o‘rganishga e’tibor qaratdilar. Jumladan:

1. Davlatning siyosiy-iqtisodiy barqarorligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy sohaga katta e’tibori jamg‘armalarni kamayishiga olib kelishi mumkin. Ya’ni, mamlakat aholisi uchun yuqori darajada ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlar mavjud bo‘lsa, bu ularning kelajakda zarur bo‘lishi mumkin bo‘lgan jamg‘armalar qilishga

¹⁰ Razzoqov A. Tashmatov Sh. O‘rmonov N. “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi”. Darslik. T: Iqtisod-Moliya. 2007. -241-bet

bo'lgan rag'batini susaytiradi (maslan, BAA, Qatar, Bahrain kabi mamlakatlarda).

2. Davlatning moliyaviy barqarorligi. "Bu omil aholi jamg'armalari hajmiga ikki xil ta'sir etishi mumkin. Birinchidan, bu omil aholining rasmiy (banklardagi) jamg'armalarini oshirishi va bu jamg'armalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish manbai bo'lishi mumkin. Ikkinchi tomondan bu omil norasmiy jamg'armalar (chet el valutasidagi, "yostiq"dagi, chet eldagi va boshqalar) ni kamaytirishi mumkin"¹¹.

3. Bozor infratuzilmasining xususiyatlari va mamlakatdagi iste'mol darajasi jamg'armalarga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, mamlakatda ipoteka bozori rivojlangan bo'lsa, aholi o'z farzandlari uchun kelajakda uy sotib olishga yo'naltiriladigan xarajatlarni qoplash uchun banklarda maxsus maqsadli jamg'armalar ochishga intiladi, mamlakat aholisning milliy mentalitetidan kelib chiqib, dam olish, tadbirlar (masalan, to'y) uchun mablag' sarflash aholida alohida jamg'armlar bo'lishini talab etadi.

Yuqoridagi omillarga qo'shimcha ravishda biz aholining rasmiy (banklarda) jamg'armalar qilishga rag'bat bermaydigan muhim bir omil, ya'ni mamlaktadagi inflatsiya darajasini ta'kidlamoqchimiz. Aynan ushbu omil aholini rasmiy jamg'armalar qilishdan ko'ra norasmiy jamg'armalar qilishga rag'batlantiradi deb hisoblaymiz.

Muxtasar qilib aytganda, jamg'armalar miqdorining qanchalik ko'p bo'lishi mamlakat iqtisodiyotiga shunchalik ko'proq ichki resurslarni jalb qilishga imkon yaratadi, albatta, bu sohada asosiy rolni bank tizimi o'ynaydi.

Yuqoridagi barcha nazariyalar va mamlakatlar bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar ko'rsatyaptiki, jamg'armalar nafaqat mamlakat iqtisodiyotida, balki aholi turmushida muhim ahamiyatga egadir. Zero, tarixning o'zi buni ko'rsatib turibdi. Umuman olganda, jamg'armalarning iqtisodiy mohiyati mamlakat bank tizimi uchun eng samarali va tezda to'planuvchi resurs manbai bo'lsa, mamlakat aholisi uchun esa kelajakda kutilayotgan xarajatlarni qoplashning ishonchli vositasi bo'lib hisoblanadi. Ammo shuni unutmaslik lozimki, aholining real daromadlari ko'p bo'lishi (me'yoriy inflatsiya sharoitida) aholi

¹¹ Azizov U.O'. va boshqalar. "Bank ishi". Darslik. T: Iqtisod-Moliya. 2016. -130-bet

jamg'armalarining ham yuqori bo'lishining asosi hisoblanadi. Bunda jamg'armalar iqtisodiyotning moliyaviy lokomotivi bo'lgan banklar ishtirokida amalga oshirilsa, uning mamlakat iqtisodiyoti uchun foydasi juda katta bo'ladi.

1.2. Aholi bo'sh pul mablag'larini banklarga jalb etishning huquqiy asoslari

Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va uning monandligini ta'minlash, ularning aktiv operatsiyalari hajmini oshirish mamlakat iqtisodiyotida bank tizimi rolini rivojlantirishdagi muhim shartlar hisoblanadi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan keyingi yillarda banklarning kapitallashish darajasini oshirish, ularning depozit bazasini mustahkamlashga doir muhim qonun hujjatlari qabul qilindiki, aynan, ular aholi bo'sh pul mablag'larini banklarga jalb etishning huquqiy asosini tashkil etdi.

Mustaqilikdan so'ng mamlakatimizda aholi bo'sh mablag'larini banklarga jalb qilishga oid qabul qilingan huquqiy hujjatlarni ularning sub'ekti jihatidan quyidagi guruhlariga bo'lishimiz mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi Qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari;
- Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari;
- Tijorat banklarining aholi bo'sh pul mablag'larini jalb etishga doir

yo'riqnoma va shartlari.

Aholi bo'sh pul mablag'larini banklarga jalb etish bo'yicha birlamchi qonun hujjati sifati 1997-yil 1-martda qabul qilingan "Fuqarolik Kodeksi" e'tirof etiladi. Ushbu kodeksning 43-bob, 759-770-moddalarida "Bank omonat shartnomasi", "Pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish huquqi", "Bank omonat shartnomasining shakli", "Omonatlarning turlari" va ularga to'lanadigan foizlar, "Omonat haqidagi talabni bajarmaganlik uchun javobgarlik", "Omonat daftarchasi" va Omonat (depozit) sertifikatini kabi tushunchalarning birlamchi huquqiy asoslari keltirilgan. Xususan, ushbu Kodeksning 760-moddasida omonatlarni jalb qilish huquqiga

maxsus vakolatli moliya muassalari ega bo'lishlari bayon etiladi, ya'ni "Pul mablag'larini omonatlarga jalb etish huquqiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziya berilgan banklar ega bo'ladilar"¹².

Bundan tashqari, omonatchilarning hisobvaraqlariga uchinchi shaxslar tomonidan pul mablag'larini qo'yilishining tartibi ham ushbu Kodeksning 767–moddasida quyidagicha keltirilgan: "Agar bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, omonatga uchinchi shaxslardan omonatchining hisobvarag'i to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni ko'rsatgan holda tushgan pul mablag'lari kiritib qo'yiladi"¹³.

Albatta, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan omonat(depozit)ga pul mablag'larini qo'yilganligini tasdiqlovchi hujjat bu-omonat daftarchasi hisoblanadi. Rasmiylashtiriladigan omonat daftarchasida qanday ma'lumotlar bo'lishi zarurligi, ularga oid bo'lgan jarayonlar Kodeksning 769–moddasida bayon etiladi. Shuningdek, omonat(depozit) sertifikatlari to'g'risidagi huquqiy asoslar Kodeksning 770-moddasida keltirib o'tilgan.

Aholidan banklarga jalb etilgan mablag'larni o'z vaqtida, shartnomada belgilangan summa va foizlar to'lanishining kafolati 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida gi qonunning 28 va 53-moddalarida keltirib o'tiladi, ya'ni 28-moddaning birinchi bandiga ko'ra, banklar jalb qilingan mablag'lar uchun majburiy rezerv shakllantirishlari va u "...omonatlarning hajmi, turi, muddatiga, banklarning boshqa majburiyatlariga bog'liq bo'ladi. Majburiy rezervlaning miqdorlari jalb etilgan mablag'lar va omonatlarning har bir toifasi bo'yicha barcha banklar uchun bir xildir"¹⁴ deb belgilab qo'yilgan. Yuqorida belgilangan majburiy rezerv bo'yicha talablarni bajarmagan banklarga nisbatan ushbu qonuning 53-moddasida belgilangan choralar va sanksiyalar qo'llanilishi keltirib o'tilgan.

Navbatdagi qonun hujjati bo'lib, 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun hisoblanadi. Ushbu qonunda

¹²"O'zbekiston Respublikasi Kodekslari" to'plami. Toshkent. "Adolat". 2014.-435-bet

¹³"O'zbekiston Respublikasi Kodekslari" to'plami. Toshkent. "Adolat". 2014.-437-bet

¹⁴"O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida" qonun. 21.12. 1995-yil. 28–modda

banklarning asosiy faoliyat turi sifatida “yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish”¹⁵ ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Bundan tashqari, ushbu qonunda bank faoliyatidagi omonatlarga nisbatan eng aniq ta’rif quyidagicha berilgan: “Omonat(depozit)-talab qilinshi bilanoq yoki to‘lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to‘lovni oluvchi shaxs yohud ularning qonuniy vakillari o‘rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to‘lagan holda yohud bunday to‘lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan pul summasi”¹⁶dir.

Ushbu qonunning e’tiborga molik jihatlari sifatida yana quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

- banklar o‘z omonatchilari va boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘lmaganida ularning litsenziyasini chaqirib olinishi;

- banklar o‘z mijozlari va ularning vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqa va jamg‘arma(omonat)lariga oid ma’lumotlar saqlanishini kafolatlashi;

- agarda, banklar tugatilgan taqdirda, uning jismoniy shaxs bo‘lgan omonatchilari bankni tugatishdan keladigan tushumlar hisobidan o‘z omonatlarini olishda imtiyozga ega ekanliklari qator moddalarning bandlarida ta’kidlab o‘tilgan.

Aholi bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb qilish borasidagi huquqiy asoslar ichidan eng muhimi sifatida 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunni e’tirof etish mumkin. Qonunning asosiy maqsadi sifatida aholi omonatlarini kafolatlash tizimini yaratish orqali aholini qonuniy huquqlarini himoyalash va ularning respublika tijorat banklariga bo‘lgan ishonchini ta’minlashdan iborat qilib belgilangan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 19-sentabrdagi “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora - tadbirlari haqida”gi

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun. 25.04.1996-yil.1-modda

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun. 25.04.1996-yil 1-modda

326-sonli qarori bilan “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi” tashkil etildi. Ushbu fondni yaratishdan ko‘zlangan maqsadlardan biri-fondga a‘zo banklar inqirozga yuz tutgan vaqtda mayda omonatchilar manfaatini himoyalash hisoblanadi.

Iqtisodiyotda, umuman, mamlakat bank tizimida “aholi omonatlarini kafolatlash tizimlari zarur bo‘lib, ular quyidagilarni ta‘minlaydilar:

1. Mayda omonatchilarning manfaatlarini himoyalash.
2. Moliyaviy tashkilotlar faoliyat ko‘rsatishiga aniq qoidalar kiritish va ularning ish faoliyatini to‘xtatishda aniq qoidalardan foydalanishni ta‘minlash.
3. Normal bank faoliyatini barqarorlashtirib, moliyaviy tizimga ko‘maklashuvchi mexanizmni yaratishni ta‘minlash”¹⁷.

Ta‘kidlab o‘tish joizki, MDH mamlakatlari ichida aholi omonatlarini himoyalash bo‘yicha huquqiy asoslar va uning negizidagi tizimni yaratish Belorussiya, Qozog‘iston va O‘zbekiston Respublikalarida boshlab berildi. Ushbu tizim rivojlangan mamlakatlar bank tizimiga xos bo‘lib, O‘zbekistonda “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi va uning asosida fondning tashkil etilishi bevosita mamlakatimizda ham ilg‘or bank islohotlari boshlanganligini ko‘rsatib bergan edi.

O‘zbekiston banklarida fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar(qonuniy vakillari)ning hisobvaraqlari, jamg‘armalari va boshqa mol - mulklar va ular bilan bog‘liq operatsiyalariga doir ma‘lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan muassasalar va mijozlarning qonuniy vakillaridan tashqari sub‘ektlar foydalanishidan himoyalanganligi to‘g‘risidagi kafolatlar 2003-yil 30-avgustda qabul qilingan “Bank siri to‘g‘risida”gi qonunda o‘z aksini topgan. Bundan tashqari, ushbu qonun “Banklar o‘z faoliyati xavfsizligini ta‘minlash, omonatlarni, kreditlar va boshqa investitsiyalarning qaytarilishini kafolatlash maqsadida o‘z mijozlari (vakillari) to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qonunda belgilangan tartibda va

¹⁷ Abdullayeva Sh.Z. Karimov F.Sh. va boshqalar. “Aholi omonatlarini kafolatlash tizimi III kitob”. T: “Iqtisod-Moliya”. 2006. -5-bet

doirada o‘zaro almashib turishlari va bir-birlariga taqdim etishlari mumkin”¹⁸ ekanligini tasdiqlaydi. Albatta, bu banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashda o‘zaro hamkorlik qilishni kuchaytirishga urg‘u beradi. Shu bilan birga, bank mijozlarining jamg‘armalari hajmi, ularning moliyaviy harakati va jamg‘armalarning egasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning himoyasi ushbu qonun bilan himoya qilinadi.

Navbatdagi huquqiy asos 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun bo‘lib, u pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning mijozlari bilan bo‘ladigan munosabatlarini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu qonundan kelib belgilangan tartib - qoidalarga ko‘ra, banklar mijozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalarda ularni identifikatsiyalash tartib-taomillarini amalga oshirishi va mijozlarni zarur darajada tekshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rishi hamda mijozlarga oid ma’lumotlarni “...amaliy ish munosabatlari to‘xtatilganidan keyin kamida 5 yil davomida saqlashlari shart”¹⁹ ekanligi belgilangan.

Aholi bo‘sh mablag‘larini jalb qilishda ushbu qonunning ahamiyati shundaki, banklar tomonidan aholidan jalb qilinayotgan moliyaviy resurslarda va uning egasida qonun bo‘yicha ta‘qiqlangan faoliyat turlari bilan bog‘liq belgilar aniqlansa, mazkur mijoz bilan amaliyot ishlari to‘xtatilib, bu to‘g‘risida maxsus vakolatli davlat organlariga xabar berishlari lozimligini belgilaydi. Bundan tashqari, mamlakaimizda ushbu qonunni qabul qilinishining xalqaro ahamiyati shundaki, unga ko‘ra O‘zbekistonda xalqaro miqyosda moliyaviy mablag‘larni legallashtirish(“pulni yuvish”)ga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashuvchi FATF (Financial Action Task Force on Money Laundering) tashkilotining “40+9” deb nomlangan tavsiyalarini amalda qo‘llanayotganligini

¹⁸ “Bank siri to‘g‘risida”gi qonun. 30.08.2003-yil. 14–modda

¹⁹ “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun. 26.08.2004-yil. 21 – modda

ko'rsatadi. Boshqa tomondan, ushbu qonun nafaqat bank tizimi amaliyotida, balki iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Aholi bo'sh pul mablag'larini banklarga jalb etishning huquqiy asosini yuqoridagi qonunlar belgilab bergan bo'lsa, Prezident qaror va farmonlari ushbu sohada sifat va miqdor jihatdan yangi yutuqlarga erishishga turtki berdi. Quyida esa ushbu qaror va farmonlarning mazmuniga to'xtalamiz.

Mamlakatimizda bank tizimini yanada rivojlantirish, ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan banklarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, bank tizimini institutsional rivojlantirish, ularning resurslari hajmini oshirish hamda boshqa ustuvor vazifalarni amalga oshirishni belgilagan Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 24-martdagi 104-sonli qarori muhim ahamiyatga ega. Xususan, "omonatlarning har xil turlari bo'yicha bank tomonidan belgilangan foiz stavkalarini, shuningdek berilayotgan kreditlar bo'yicha o'rtacha stavkalarni ommaviy axborot vositalarida muntazam e'lon qilish"²⁰ni amalga oshirish bo'yicha berilgan tavsiyalar banklarda aholi bo'sh pul mablag'larini jalb etishda zamonaviy marketing tizimiga o'tishga sabab bo'ldi.

Agarda e'tibor qilinadigan bo'lsa, mamalakatimizda bank tizimini rivojlantirish bo'yicha qabul qilinadigan dastur va qarorlarning barchasida aholi bo'sh mablag'larini banklarga jalb qilishni kengaytirishga doir tavsiyalar va ushbu sohadagi yo'nalishlar kiritib boriladi. Buning amaliy isbotini 2005-2007-yillarda bank sektorini isloh qilish va rivojlantirish dasturini amalga oshirishni belgilovchi 2005-yil 15-aprelda qabul qilingan PQ-56--on Prezident qarori ham tasdiqlaydi. Ushbu qaror bo'yicha "...pul muomalasini mustahkamlash, milliy valyuta va uning ayirboshlash kursi barqarorligini kuchaytirish, aholining bank depozitlariga qo'yadigan omonatlari ko'payishini rag'batlantirish, bankdan tashqari aylanmada qolayotgan moliyaviy mablag'lar va pul oqimlarini bank aylanmasiga jalb etish"²¹kabi muhim chora - tadbirlarni amalga oshirish vazifasi kiritilgan bo'lib, ushbu

²⁰ "Bank tizimini isloh qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining 102-sonli qarori. 24.03.2000-yil. 3-band

²¹"Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-56-qaror. 15.05.2005-yil. 1-band

qonun hujjatidan keyingi qabul qilingan qaror va qonun osti hujjatlari bevosita uning rivojlantirilishida muhim asos bo'ldi.

Mamlakat bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, 2007-yilga kelib, "banklarda aholining omonat qo'yilmalari hajmi-38 baravar, bank kassalariga naqd pul mablag'larining tushumlari-8,1 baravar, iqtisodiyotning real sektoriga kredit qo'yilamalari 5 baravar ko'paydi. Galdagi vazifa esa tijorat banklarini samarali investitsiya markazlariga aylantirish, ularning kapitallashuv darajasini oshirish va uning barqarorligini yanada ta'minlash vazifalarini bajarish turardi. Ushbu yuqorida keltirilgan vazifalarni amalda bajarishni rejali tarzda olib borish uchun 2007-yil 7-noyabrda PQ-726-sonli Prezident qarori qabul qilindi. Ushbu qarorni ijro etishning yo'nalishlari sifatida bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga yanada jalb qilish va naqd pulsiz hisob - kitoblar hajmini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish hamda "oziq-ovqat (dehqon) bozorlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlari va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini jamg'arma hamda muddatli depozitlarga, shu jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan tushadigan bo'sh pul mablag'larni omonatchilarga mablag' saqlanadigan har bir kuni uchun foizli daromad qo'shgan holda vaqtincha saqlashga jalb etish"²²ni yo'lga qo'yishni ta'minlash belgilandi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun banklar tarmog'ida 2007-2010-yillarda mini - banklar hajmini 2400 taga hamda maxsus va jamg'arma kassalari miqdorini 1200 tagacha oshirish belgilandi.

Ushbu qarorning ijrosini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish, investitsiya resurslarining muhim manbai sifatida aholining erkin pul mablag'larini tijorat banklari omonatlariga jalb etishni yanada rag'batlantirish maqsadida 2008-yil 20-fevralda "Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-3968-sonli Prezident farmoni qabul qilindi. Farmondan kelib chiqadigan tartib-qoidalariga ko'ra, quyidagi masalalarni amalga oshirish

²² "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-726-sonli qaror. 07.11.2007-yil. 4-band 3-qism

belgilandi:

- 2008-yil 1 - apreldan 2009-yil 1-aprel oralig'ida banklar tomonidan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari-jismoniy shaxslardan depozit hisobvaraqlariga naqd pul shaklida qo'yilgan yohud o'zlarining xorijiy banklardagi shaxsiy hisobvaraqlaridan o'tkazilgan milliy va xorijiy valutadagi pul mablag'larini cheklanmagan miqdorda va mablag'larning kelib chiqish manbaalarini tasdiqlovchi hujjatlar talab qilmasdan qabul qilish;

- O'zbekiston rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan depozitlar hisobvaraqlariga qo'yiladigan mablag'lari manbaalari deklaratsiya qilinmasligi hamda belgilangan vaqt oralig'ida ushbu mablag'larni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan ozod etish belgilandi.

Yuqoridagi vazifalarga qo'shimcha ravishda O'zbekiston rezidentlari-jismoniy shaxslarning banklardagi jamg'armalari, hisobvaraqlaridagi pul qo'yilmalari, ular bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar xususidagi "bank siri hisoblanadigan ma'lumotlarni noqonuniy oshkor etgani yoki uchinchi shaxslarga bergani uchun aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka, hatto, jinoiy javobgarlikka ham tortiladi"²³ deb belgilanishi omonatchilar moliyaviy mablag'larini huquqiy himoyalanganligini ta'minladi.

Hammaga ma'lumki, 2007-yilning oxiri va 2008-yilning boshlarida AQSHda boshlangan moliyaviy inqiroz, keyinchalik, quloq yozib, iqtisodiy inqirozni o'ziga ergashtirdi hamda jahon miqyosida deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga, bank-moliya tizimiga o'z ta'sirini sezdira boshladi. Hattoki, ko'p yillik tarixga ega bo'lgan banklar(masalan, Lehman Brothers) bankrotga uchrab, yirik sug'urta kompaniyalar(masalan, American International Group) o'z majburiyatlarini bajara olmay qoldilar. Bunday vaziyatda "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining omonatlarini jahon moliyaviy krizisining ehtimol tutilgan salbiy oqibatlaridan himoyalashning ishonchli kafolatlarini ta'minlash, mamlakat bank tizimiga aholining ishonchini tobora mustahkamlash, aholi

²³ "Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-3968-sonli Prezident farmoni. 20.02.2008-yil. 4-band 3-qism

omonatlarini tijorat banklariga jalb qilish bo'yicha qo'shimcha shart - sharoitlarni yaratish maqsadida"²⁴ 2008-yil 28-noyabrda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining PF-4057-sonli farmoni qabul qilindi. Farmonda belgilanganidek, omonatlar hajmidan qat'iy nazar, fuqarolarning bank depozit hisobvaraqlaridagi omonatlari bo'yicha to'la hajmda haq to'lash kafolatlanadi hamda "fuqarolarning omonatlari bo'yicha to'liq miqdorda haq to'lash tijorat bankining mablag'i hamda qonun hujjatlariga muvofiq tijorat banklarining badallari va ajratmalari hisobiga shakllantiriladigan Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi"²⁵. Albatta, o'sha davrdagi jahon moliyaviy holatida bunday qonunosti hujjati qabul qilinishini barcha mamlaktlar muhim va zarur deb bilar edi.

Aholi bo'sh mablag'larni banklarga jalb qilishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qonunosti hujjati sifatida 2009-yil 6-aprelda PQ-1090-son bilan ro'yxatga olingan Prezident qarori desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, ushbu qarorning ijrosi banklarda mavjud depozit(omonat)lar hajmini 50 foizdan kam bo'lmagan miqdorda oshirishni ta'minlashni nazarda tutadi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar 2009-yilning o'zida belgilandi:

- Banklarda yuridik shaxslarning 6 oygacha bo'lgan depozitlari uchun Markaziy bank amaldagi qayta moliyalash stavkasining 75 foizidan kam bo'lmagan stavkada ustama haq belgilash;

- aholining 1 yilgacha bo'lgan omonatlariga Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 150 foizidan kam bo'lmagan stavkada ustama haq belgilash;

- jismoniy shaxslarning bank plastik kartochkalaridagi resurslari uchun amaldagi qayta moliyalash stavkasidan kam bo'lmagan miqdorda ustama haq belgilash;

²⁴ "Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-4057-son Prezident farmoni. 28.11.2008-yil

²⁵ "Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-4057-son Prezident farmoni. 28.11.2008-yil 3- band

- 2009-2015-yillarda bank va nobank tarmoqlarini, aholi mablagʻlarni qabul qiluvchi maxsus va jamgʻarma kassalari miqdorini oshirish hamda ularni aholisi 500 kishidan kam boʻlmagan qishloq aholi punktlarida joylashtirishga eʼtibor qaratish.

- ota-onalar tomonidan 16 yoshgacha boʻlgan farzandalariga banklarda maqsadli, uzoq muddatli jamgʻarmalar ochishlarini ragʻbatlantirish maqsadida amaldagi qayta moliyalash stavkasidan kam boʻlmagan ustama haq toʻlash hamda kapitalizatsiyani hisobga olgan holda yangi jozibador omonat turlarini joriy etish;

- aholining uy-joy qurilishi sohasida banklar bilan oʻzaro hamkorligini oshirish maqsadida banklarda amaldagi qayta moliyalash stavkasidan kam boʻlmagan foizlarda uzoq muddatli, maqsadli jamgʻarmalarni joriy etish;

- banklarda xorijiy valutada jamgʻarma qoʻyuvchilarga turli imtiyozlarni joriy etish;

- ommaviy axborot vositalarida banklar tomonidan taklif etilayotgan omonatlar boʻyicha mavjud barcha imtiyozlar haqida tanishtirib borishni yoʻlga qoʻyish;

- banklar tomonidan aholi boʻsh mablagʻlarini jalb qilish borasidagi faoliyatni ragʻbatlantirishni tashkil etish maqsadida Oʻzbekiston Prezidentining 2008–yil 31–oktabrdagi “Aholining omonatlarini jalb qilish boʻyicha Respublika tijorat banklari oʻrtasida tanlov oʻtkazish toʻgʻrisida“gi PQ-991-sonli qarori ijrosini taʼminlash;

- Markaziy bank va Oʻzbekiston banklar assotsatsiyasi boshchiligida banklar tomonidan aholi va xoʻjalik subʼektlariga taklif etilayotgan xizmatlar, omonat(depozit)lar, kreditlar va ularning foiz stavkalari va boshqa imtiyoz turlarini oʻzida aks ettirgan davriy nashrlarni yoʻlga qoʻyish;

- Markaziy bank va Oʻzbekiston banklar assotsatsiyasi boshchiligida hududlarda “Biznes uchun omonat va kreditlar” mavzusida koʻrgazma-seminarlar tashil etish asosida aholi va tadbirkorlik subʼektlariga bepul konsultatsiyalar tashkil etish va boshqalar.

Yuqoridagi vazifalarning ijrosi, albatta, o'tgan yillar davomida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatdi hamda aholi bo'sh mablag'larini jalb qilishda banklar o'rtasida sog'lom raqobatni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi.

O'zbekiston bank tizimida yana bir yirik siljishlar va yutuqlarga erishishga sababchi bo'lgan qonunosti hujjati 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015-yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli qarori hisoblanadi. Xususan, ushbu qarorda belgilangan, 2011-2015-yillarda tijorat banklaridagi aholi va xo'jalik sub'ektlarining depozit (omonat) lari hajmini 2,5 barobarga oshirish uchun qator istiqbolli yo'nalishlar belgilangan edi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2344-sonli qarori mamlakatimiz bank tizimining moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini yanada oshirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakat bank tizimida 2015-2019-yillar oralig'ida xalqaro Bazal qo'mitasining standart va tavsiyalari (Bazal III standartlari)ni amalda bosqichma - bosqich joriy etish, shu bilan birga, bank tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda asosiy dastur bo'lib xizmat qildi. Yana bir muhim jihati "tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, omonat va depozitlarning yangi jozibador turlarini joriy qilish yo'li bilan aholi va xo'jalik sub'ektlarining bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga keng ko'lamda jalb etish chora-tadbirlarini amalga oshirish"²⁶ maqsadida quyidagi vazifalarni bajarish belgilandi:

- Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi, inflatsiya ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar hamda mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni

²⁶ "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2344 – sonli qarori. 28.11.2008-yil. 1-band 3-qism

hisobga olgan holda tijorat banklari jalb qilayotgan depozit (omomat) lar foiz stavkalarini belgilash mexanizmini ishlab chiqishi;

- banklar aktivlarining aylanuvchanlik muddatlari bilan ular jalb qilgan resurslar orasidagi o‘zaro ta’sirni tartibga solish;

- jalb qilinadigan resurslar bo‘yicha foizlar o‘zgarishini tartibga solish;

- banklar resurs bazasini oshirish va uni mustahkamlash maqsadida uzoq muddatli

obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, shuningdek, subordinar qarzlarni faol jalb qilishni kengaytirish;

- uzoq muddatli, innovatsion depozit dasturlari yordamida aholi va xo‘jalik sub’ektlarining iste’mol qobiliyatini hisobga olgan holda yangi jozibador depozit va jamg‘armalarni joriy etish orqali bank mijozlar bazasini kengaytirish va boshqalar;

Ushbu qonun osti hujjatining ijrosi bugungi kunda ham davom etmoqda va ayni paytda unga qo‘shimcha yoki rag‘batlantiruvchi qonun osti hujjati sifatida Prezident Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonni ijrosini ta’minash borasidagi chora-tadbirlarni ta’kidlashimiz mumkin. Ushbu farmon ijrosi borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida ushbu bitiruv malakaviy ishining III bobida batafsil tanishtirib o‘tamiz.

1.3 Jamg‘armalar turlari va ularning bank resurslarini oshirishdagi ahamiyati

Biz yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, uy xo‘jaliklari tasarrufidagi daromad, birinchi navbatda, birlamchi iste’molga va qolgan qismi jamg‘arish uchun ishlatiladi. Bunda jamg‘armalarning hajmi va holatini mamalakat bank tizimining rivojlanganlik darajasi, mavjud iqtisodiy - ijtimoiy hamda siyosiy omillar belgilab beradi. Biz keyingi o‘rinlarda ushbu jamg‘armalarni omonat (depozit) lar deb yuritimiz va ularning mamlakat qonun hujjatlarida belgilangan turlari hamda ushbu omonat (depozitlar) ni jalb qilinishi bank resurs bazasiga qay darajada ta’sir

etishiga to'xtalib o'tamiz.

Tijorat banklarida jalb qilingan mablag'lar orasida o'zining hajmi bo'yicha omonat (depozit) lar yetakchi o'rinni egallaydi. Bunga sabab-ularning faqatgina bankka emas, balki omonatchiga ham manfaatliligidir. Bir tomondan, omonatchi bankka maqsadli joylashtirgan mablag'idan belgilangan muddat davomida foizli daromad olsa, boshqa tomondan, bu resurslar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi va bank ulardan turli xo'jalik sohalarini qulay shartlar asosida kreditlashda foydalanadi.

Endi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 22- iyuldagi 19/11-son qaroriga muvofiq qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomada banklar tomonidan jalb qilinadigan ushbu omonat (jamg'arma) turlariga berilgan ta'riflarni ko'rib chiqamiz.

Demak, ushbu yo'riqnomada belgilanganidek, "omonatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar;
- Jamg'arma omonatlar;
- Muddatli omonatlar;
- Omonat sertifikatlari.

Banklar yuqorida qayd etilgan omonat turlaridan tashqari qonun hujjatlariga zid bo'lmagan, boshqa omonatlarni qabul qilishlari mumkin"²⁷. Demak, aholining banklardagi jamg'armalari (omonatlar) ni bir-biridan ajratish maqsadida biz ushbu yo'riqnomada keltirilgan quyidagi ta'riflar bilan tanishib chiqamiz:

Talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar-"omonatchilarning talab qilishi bilanoq beriladigan omonatlar talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlardir"²⁸. Aholining bank plastik kartalaridagi mablag'lari talab qilib

²⁷ "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom. Adliya vazirligida. 26.08.2015 –yilda 2711- son bilan ro'yxatdan o'tgan. 11-band

²⁸ "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom. Adliya vazirligida. 26.08.2015 –yilda 2711- son bilan ro'yxatdan o'tgan. 2–bob 17-band

olinguncha saqlanadigan omonatlar hisoblanadi. Bugungi kunda banklarda saqlanayotgan omonatlar tarkibida ushbu turdagi jamg'armalar eng katta ulushga ega bo'lib, jamiga nisbatan olganda ularning hajmi 70 foizdan kam emas. Ushbu turdagi jamg'armalar bank va omonatchi o'rtasida tuzilgan bank omonati shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan (jamg'armalari) omonatlari muddatsiz hisoblanib, bank omonati shartnomasida omonatni omonatchining birinchi talabi bilan qaytarish va belgilangan foizlar to'lash shartlari kiritiladi.

Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar hisobi "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi"ga muvofiq "20206—Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari" hisobvarag'ida yuritiladi.

Jamg'arma omonatlar-"bank omonati shartnomasida belgilangan tartibda dastlabki omonat summasiga qo'shimcha mablag'lar kiritib borish huquqi bilan muayyan shartlar asosida jamg'ariladigan va ma'lum maqsadlarga yo'naltiriladigan omonatlar jamg'arma omonatlar hisoblanadi"²⁹.

Ushbu omonat turiga mablag' qo'yimoqchi bo'lgan jamg'armachilar bank bilan jamg'arma omonati shartnomasini tuzadilar hamda bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan omonat summasini qo'yishlari shart hisoblanadi. Jamg'arma omonatlar bo'yicha bank omonati shartnomasiga muvofiq qo'shimcha mablag'lar kiritilishi mumkin. Qo'shimcha mablag'lar kiritish tartibi bank omonati shartnomasida aniq belgilanadi.

Jamg'arma omonatlar maqsadli, yutuqli va boshqa shartlar belgilangan ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ularni bir-biridan farqi shundaki, ma'lum maqsad uchun jamg'ariladigan va qat'iy ravishda shu maqsadga yo'naltiriladigan omonatlar maqsadli jamg'arma omonatlar hisoblansa, omonatchiga foizlar yutuq ko'rinishida to'lanadigan omonatlar yutuqli jamg'arma omonatlar deb yuritiladi.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom. Adliya vazirligida. 26.08.2015-yilda 2711- son bilan ro'yxatdan o'tgan. 3-bob, 21-qism

Yutuqlar pul mablag‘lari, omonatga qo‘shimcha foizlar hisoblab yozish, buyum va boshqa ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin.

Omonat qo‘yishda bank omonati shartnomasida ko‘rsatilgan shartlarning bajarilishi bilan omonatdan foydalanish mumkin bo‘lgan uchinchi shaxs nomiga qo‘yilgan omonatlar shartli jamg‘arma omonatlar hisoblanadi. Masalan, ”Omonatchi o‘quv yurtini tugatgandan so‘ng, omonat beriladi” yoki ”Voyaga yetgach beriladi” kabi shartlar belgilangan bo‘lishi mumkin. Omonatchining xohishiga ko‘ra, shartning bajarilish muddati bank omonati shartnomasida ko‘rsatilishi mumkin. Masalan, “2017-yilda omonatchi o‘quv yurtini tugatgach beriladi”.

Jamg‘arma omonatlarning yana bir qulaylik tomoni, omonatchi topshirig‘i asosida bank tomonidan mijozning jamg‘arma omonati bo‘yicha hisoblangan foizlar summasini bankdan olingan kreditga , kommunal to‘lovlarni amalga oshirish uchun yo‘naltirilishi mumkin bo‘ladi.

Muddatli omonatlar-”bank omonati shartnomasida belgilangan muddat tugaganidan keyin qaytarish sharti bilan jalb qilingan omonatlar muddatli omonatlar hisoblanadi”³⁰.

Muddatli omonatlar 1 yilgacha (qisqa muddatli) va 1 yildan ortiq muddatdagi (uzoq muddatli) shakllari mavjud bo‘lib, ular bo‘yicha bank bilan omonatchi o‘rtasida muddatli bank omonati shartnomasi tuzilishi va omonatchi shartnoma tuzilganidan so‘ng, muddatli bank omonati shartnomasida ko‘rsatilgan omonat summasini qo‘yishi lozim bo‘ladi. Agarda, omonatchi omonat muddati tugaganidan keyin o‘z mablag‘larini olishni xohlamasa, omonat shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, shartnoma omonatni talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar shartlari asosida uzaytirilgan deb hisoblanadi.

Muddatli omonatlar hisobi “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi”ga muvofiq “20600—Muddatli depozitlar” hisobvaraqlarida yuritiladi.

³⁰ “O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom. Adliya vazirligida. 26.08.2015–yilda 2711-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan. 4–bob 33-qism

Mamlakatimiz banklarida aholi bo‘sh mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha yana bir muqobil vosita “Omonat sertifikat” bo‘lib, u orqali tasarrufida bo‘sh pul mablag‘i mavjud bo‘lgan jismoniy shaxslar bankka pul mablag‘larini omonat sertifikatida shartlashilgan foizlar asosida joylashtiradilar. Ushbu sertifikat asosida omonatchilar omonat summasini va hisoblangan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Aholi bo‘sh mablag‘larini bankka jalb qilish maqsadida “omonat sertifikatlarini chiqarish hamda muomalada bo‘lishi banklarning omonat (depozit) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo‘lish tartibi to‘g‘risidagi nizomda (ro‘yxat raqami 1859, 2008-yil 24-sentabr) belgilangan tartibda amalga oshiriladi”³¹.

Yuqorida nomlari qayd etib o‘tilgan omonat turlari bankning jalb qilingan mablag‘larining tarkibiy qismi bo‘lib, ular bundanda katta qismni tashkil etuvchi bank passivlarining bir qismi hisoblanadi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo‘lgan kredit resurslarini tashkil qiladi.

Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosan to‘rtta shakli mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- Banklari qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish bilan resurslar yig‘ish;
- Bank foydasidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;
- Boshqa banklar mablag‘larini jalb qilish;
- Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Yuqorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarda o‘z mablag‘lari vujudga keladi va qolgan oxirgi ikki shaklida kredit resurslari yuzaga keladi.

³¹ “O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom. Adliya vazirligida 26.08.2015 –yilda 2711- son bilan ro‘yxatdan o‘tgan. 5–bob 41-qism

Jismoniy shaxslarning mablag‘lari yuridik shaxslarning depozitlari bilan birgalikda tijorat banklari resurslarini shakllantirishning asosiy manbasi bo‘lib, ular aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda eng qulay vosita hisoblanadi.

Tijorat banki o‘z mijozlarining bo‘sh turgan mablag‘larini qarzga olish bilan bir vaqtning o‘zida bu mablag‘larini o‘z vaqtida qaytarilishini ta‘minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo‘lib, ular aholining bo‘sh turgan pul mablag‘larini bank sari oqimini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo‘lgan hollarda, mijozlar o‘z mablag‘larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi.

Resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, iqtisodiyot tarmoqlariga va kichik biznes sub‘ektlariga kreditlar ajratiladi, to‘lovlar amalga oshiriladi va yakunida banklarning daromadlari vujudga keltiriladi. Ushbu maqsadlardan kelib chiqib “banklar quyidagi asosiy usullar orqali resurslarni jalb qiladi:

- aholi, korxonalar, tashkilotlarning hisob raqamlarini ochish va yuritish;
- yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini jalb qilish;
- o‘zining qarz majburiyatlarini chiqarish (qimmatli qog‘ozlar);
- kredit va zayomlarni boshqa banklardan jalb qilish, shu bilan birga, Markaziy bankdan kredit olish”³². Ushbu keltirilgan usullarni birlashtiradigan bo‘lsak, bankning depozit siyosati va depozit operatsiyalari tashkil qilinadi.

Depozit operatsiyalari yordamida tijorat banklarining 90 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Tijorat bankining depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan. Shuning uchun ham banklarda aholi va xo‘jalik sub‘ektlaridan jalb qilinadigan resurslar hajmini ko‘paytirish uchun, avvalo, depozitlar uchun taklif qilinayotgan foizlar miqdoriga e‘tibor beriladi. Chunki, bank hisobiga qo‘yilgan

³² “Банковское дело”. Под редакцией Г.Н. Белоглазовой. Кроливецкой.–М.2010. – ст. 22-23

depozitlar uchun belgilangan foizlar qanchalik yuqori bo'lsa, tijorat banki shunchalik ko'p pul mablag'larini jalb qilib, ulardan aktiv operatsiyalar uchun resurslar sifatida foydalanish imkoni ko'payadi. Ammo, bunda foizlar bo'yicha to'lovlar oshib ketishi sababli bank xarajatlari ham ko'payib ketishini nazarda tutish kerak. Shuni hisobga olgan holda rivojlangan bank tizimiga ega bo'lgan xorij mamlakatlarida bankka bo'sh mablag'larni jalb etish va bank resurslarini oshirishda quyidagi mezonlarga rioya qilinadi:

- bank depozitlariga pul mablag'larini jalb qilishda ularni xususiyatlariga ko'ra guruhlashtirish, ya'ni jalb qilingan resurslar manbaasi, uning summasi, muddati, daromadlilik darajasi va boshqalar;

- depozitlar assortimentini tashkil qilish, ya'ni aholining turli qatlamlarini hisobga olib, pul mablag'larini omonatga qo'yishda turli qulaylik va imkoniyatlar yaratish;

- moliyaviy resurslarni jalb qilishni boshqarishda ularni joriy faoliyat uchun emas, balki bankning uzoq muddatli strategiyasini hisobga olish;

Tabiiyki, bankka resurs jalb qilishda bunday mezonlarga asoslangan xorij banklari yuqori darajada kredit salohiyatiga ham ega bo'ladilar. Misol tariqasida AQSHning "JPMorgan Chase Bank" bankining jami depozitlar hajmi 2017 yilning 31-mart holatiga ko'ra 1 519 501 mln AQSH dollarni tashkil etdi undan keyingi o'rinda esa "Wells Fargo Bank"ning jami depozitlari hajmi 1 367 216 mln AQSH dollarni tashkil etdi ³³. O'z navbatida, tabiiyki, bunday ulkan resurs bazasiga ega bo'lgan banklarning aktiv operatsiyalaridan keladigan foydasi ham katta hajmda bo'ladi.

Mamlakatimizda ushbu sohada erishilgan yutuqlardan kelib chiqqan holda "2016-yil yakunlariga ko'ra tijorat banklari tomonidan jalb etilgan depozitlarning umumiy hajmi 2015-yilga nisbatan 25,2 foizga oshib, 44,6 trln. so'mni tashkil etdi"³⁴. Ushbu mablag'lardan kredit resurslari sifatida foydalangan holda

³³<http://www.USBankLocations.com/U.S. Bank rankings/> Banks ranked by total deposits

³⁴ Monetar siyosatning 2017-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. Bank axborotnomasi No: 6. 09.02.2017-yil

“iqtisodiyotning real sektoriga kredit qo‘yilmalari 2016–yilda 25,1 foizga oshib, 53,4 trln. so‘mga yetdi”³⁵.

Umumiy holda xulosa qilib aytish mumkinki, banklarda aholidan jalb qilingan bo‘sh pul mablag‘lari aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun eng qulay moliyaviy resurslar bo‘lib, ular hajmini oshirish bankda depozit va kredit hamda foiz siyosatini bir-biriga mutanosib holda ishlab chiqishni talab qiladi. Zero, shundagina banklar jalb qilingan resurslardan samarali foydalangan holda aktiv operatsiyalarni amalga oshirishdan yuqorida daromad topadilar.

1-bob bo‘yicha xulosa

Demak, jismoniy va yuridik shaxslar kelajakda o‘zlarining rejalashtirilgan xarajatlarini amalga oshirishda va favqulotda paydo bo‘ladigan sarflarni qoplash maqsadida o‘zlarining daromad manbaalaridan kelib chiqqan holda mablag‘ jamg‘arib boradilar. Ular ushbu jamg‘armalarni bankda omonat (depozit) ga qo‘yishlari, pensiya va investitsiya fondlariga joylashtirishlari yoki naqd shaklda jamlab borishni tanlashlari mumkin. Ammo, bularning ichida jamg‘armalarni bankda omonatlarga joylashtirish nisbatan ishonchli, kam riskli hisoblanib, u bir tomondan bank uchun aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda resurs bo‘lib xizmat qilsa, ikkinchi tomondan mablag‘ egasiga ma’lum muddat davomida doimiy daromad olish imkonini beradi.

Banklarning aholi va xo‘jalik sub’ektlarining bo‘sh pul mablag‘larini bank faoliyatiga jalb qilish bilan bog‘liq faoliyati bank tizimida muhim faoliyat yo‘nalishini belgilab beruvchi depozit siyosati orqali amalga oshiriladi. Depozit siyosati yordamida depozit operatsiyalari amalga oshiriladi va ushbu operatsiyalar yordamida tijorat banklarining 90 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Tijorat bankining depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta’minlashga qaratilgandir.

³⁵ Monetar siyosatning 2017-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. Bank axborotnomasi. No: 6. 09.02.2017-yil

2-BOB. BANKLAR TOMONIDAN AHOLI BO‘SH PUL MABLAG‘LARINI JALB ETISHNING AMALD.AGI HOLATI TAHLILI

2.1. “Ipoteka-bank” ATIB tomonidan depozit siyosatini amalga oshirish tartibi va tahlili

Bitiruv malakaviy ishining II bobini biz, avvalo, mamlakatimizdagi banklar orasida o‘zining aholi bo‘sh mablag‘larini jalb qilish borasida yuksak yutuqlarga erishib kelayotgan “Ipoteka-bank” ATIBning ushbu faoliyat doirasida amalga oshirgan ishlarining tahliliga e’tibor qaratamiz.

Mavzu bo‘yicha olib borilgan izlanishlar davomida “Ipoteka-bank” ATIBning aholi bo‘sh mablag‘larini bankka jalb qilish borasidagi amaliyotlari o‘rganildi.

“Ipoteka-bank” ATIB aholi bo‘sh mablag‘larini jalb etish bo‘yicha amalga oshirgan chora-tadbirlari asosini bitiruv malakaviy ishining I bobida ko‘rib o‘tilgan qonun va qonunosti hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosi tashkil etadi. Xususan, 2011-yil 26-noyabrdagi “2011-2015 - yillarda Respublika moliya - bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PQ-1438-sonli Prezident qarori, shuningdek, 2015-yil 26-mayda qabul qilingan “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2344-sonli Prezident qarori ijrosini ta’minlash maqsadida bankda qator ishlar amalga oshirildi.

Yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan qaror va farmonlar ijrosini amalga oshirish maqsadida “Ipoteka-bank” ATIB tomonidan yuridik va jismoniy shaxslar uchun 20 dan ortiq muddatli omonat (depozit) turlari joriy etildi va ular bank bo‘sh pul mablag‘larini omonatlarga jalb qilishga samarali xizmat qilmoqda.(1-ilova)

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 6-apreldagi “Aholi va xo‘jalik sub’ektlarining bo‘sh pul mablag‘larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb etishni yanada rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida bankning resurs

bazasini mustahkamlash, omonat va depozitlarning yangi jozibador turlarini joriy qilish yo‘li bilan aholi va xo‘jalik sub’ektlarining bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga keng ko‘lamda jalb etish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda”³⁶. Ushbu chora-tadbirlar ijrosi natijasida “2016-yilning 31-dekabriga qadar yuridik shaxslar va aholining 3 050 mlrd. so‘mdan ortiq bo‘sh pul mablag‘lari bankka jalb qilingani holda bank tomonidan jalb qilingan aholi bo‘sh pul mablag‘lari miqdorining o‘zi 822,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 33,4 foiz o‘shishni qayd etdi”³⁷.

Yuqorida keltirilgan natijalarning tub ildizi sifatida “Ipoteka-bank” ATIB tomonidan joriy etilgan har xil turdagi omonat va depozitlarni aholi hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga har tomonlama maqbulligi bilan ajralib turganligi, omonat(depozit) turlarining muddatlari, foizlari va boshqa shartlari bilan joriy etilganligi deb ta’kidlashimiz mumkin.


2016-yil yakunlari bo‘yicha “Ipoteka-bank” ATIB tizimida 38 ta filial respublikaning turli viloyat va tumanlarida mavjud bo‘lib, shu bilan birga, yuridik shaxslarga qulay bo‘lgan manzillarda bank xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida 154 ta minibanklar, 578 ta jamg‘arma (kommunal va maxsus) kassalar aholi hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bo‘sh pul mablag‘larini omonat (depozit) larga joylashtirish va turli to‘lovlarni qabul qilish uchun tashkillashtirilgan.

Ushbu xizmat ko‘rsatuvchi muassasalar viloyat shahar va tuman markazlaridan ancha uzoqda joylashgan aholi punktlarida “Ipoteka-bank” ATIBning barcha turdagi bank xizmatlarini ko‘rsatgan holda ularning banklarga bo‘lgan ishonchini yanada oshishiga hissa qo‘shmoqda. Xususan, Ipoteka-bank tomonidan Respublikaning viloyat yoki tuman markazidan uzoqda istiqomat qiluvchi aholining bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlari inobatga olgan holda, bir-biriga yaqin bo‘lgan aholi punktlari kesishmalarida mini-banklarni tashkil etishga alohida ahamiyat bermoqda. Shuningdek, bank depozit siyosatida belgilangan

³⁶ “Ipoteka-bank” ATIBning 2016–yil yakunlari bo‘yicha hisoboti va “Ahbor-reyting” agentligining 2016–yil yakunlari bo‘yicha hisoboti ma’lumotlari asosida tuzildi

³⁷ “Ipoteka-bank” ATIBning “Bank axborotnomasi” gazetasining 27.04.2017-yil sonida chiqarilgan moliyaviy hisoboti

maqsadlarga erishish uchun hududlarda bank kassalari hajmini oshirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Hududlarda tashkil etilayotgan kassalar aholidan turli xildagi to'lovlarni qabul qilish bilan birga ularning bo'sh pul mablag'larini bank omonat va jamg'armalariga jalb qilishda samarali vosita hisoblanib, ular hajmi yillar davomida oshirib borilmoqda. Bu esa bank depozit siyosatida belgilangan maqsadlarga erishishni o'z vaqtida hamda ishonchli ta'minlamoqda.



1-rasm. 2010 - 2017 -yillar davomida “Ipoteka-bank” ATIB tasarrufidagi kassalar soni dinamikasining o'zgarishi³⁸

Rasmda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2010-yildan 2017-yilning 1-may sanasigacha bo'lgan davrda “Ipoteka-bank” ATIB tomonidan 90 ta jamg'arma (kommunal va maxsus) kassalar tashkil etishga erishilgan. Ya'ni 2010-yilda jami kassalar soni 485 tani tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilning 1-may holatiga kelib, ularning hajmi 575 taga yetgan. Bu bilan bank aholining talab va takliflarini o'rgangan holda Respublikaning turli manzillaridan turib bank xizmatlarini ko'rsatish kengaytirilgan, shuningdek, umumiy kassalar sonining o'zgarishidan tashqari, bank faoliyat turlarini ham kengaytirgan. Shuningdek, ushbu dinamika kuzatilayotgan davrda aholidan tushgan takliflarni hisobga olgan holda hamda bank kassalari joylashgan hudud sharoitlarini hisobga olib, kassalar


³⁸ “Ipoteka-bank” ATIB yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

maqomlarida o'zgarishlar bo'lganini ham kuzatish mumkin .

Bank kassalarining maqomlari o'zgarishi-aholining bankka murojaatlarini tahlil qilingan holda kassaning maqomlarini, ya'ni faoliyat turi o'zgartirib xizmat ko'rsatish-ular ko'rsatayotgan bank xizmatlari sifatini oshirgan.

Bugungi kunda mijozlar uchun banklararo raqobat sharoitida mijozlarning xohish-istaklariga qarab ish tutish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ular o'z talablariga mos kelmaydigan moliya muassasasi xizmatlaridan voz kechib, boshqa bank moliyaviy xizmatlaridan foydalanishda erkin ekanliklarini unutmaslik kerak. Shundan kelib chiqqan holda, o'z mijozlariga zamonaviy axborot-texnologiyalari bilan mijozlar uchun qulay tariflarda xizmat ko'rsatayotgan banklar bu sohada muvaffaqiyatga erishmoqda.

Vaziyatni hisobga olgan holda, "Ipoteka-bank" ATIB tomonidan bank tizimining innovatsion tizimlari joriy etilgan va bank mijozlari bo'lgan foydalanuvchilar o'z mobil telefon apparati yoki noutbukda internetga ulanib masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishmoqda. Xususan, aholi omonatchilari uchun "Shaxsiy kabinet" xizmatining mavjudligi aholining bankka bo'lgan ishonchini yanada ortishiga sabab bo'lmoqda.




2-rasm. "Ipoteka-bank" ATIB ning 2011-2016-yillar davomida jalb qilgan omonatlari qoldig'i³⁹(mlrd. so'm)

³⁹ "Ahor-reyting" agentligi hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Tijorat bankining ushbu yo‘nalishdagi izlanishlari, o‘z navbatida, aholining bank mahsulotlariga bo‘lgan qiziqishini yanada ortishiga hamda jamg‘armachilar soni va aholi omonatlari qoldig‘i o‘shishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. 2-rasm ma’lumotlari tahlil qilinganda ayon bo‘ladiki, 2016-yilning 31-dekabr holatiga ko‘ra, bankda aholi omonatlari qoldig‘i-822,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2015-yilning shu davriga nisbatan 206,2 mlrd. so‘mga yoki 33,5 foizga oshgan.

Ushbu bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilishda, tabiiyki, Ipoteka-bank tomonidan qo‘shimcha tashkil etilgan va qaytadan ish boshlagan kassalar hajmidagi o‘shish ham bevosita o‘z hissasini qo‘shgan. Ammo, shuni inobatga olish kerakki, Ipoteka-bankning 2016-yilgi moliyaviy hisoboti bo‘yicha, uning mijozlardan jalb qilgan mablag‘lari umumiy hajmi 3 050 mlrd. dan ortiqni tashkil etgan bir paytda, aholi omonatlarining jamiidagi ulushi 24,7 foizga tengligini normal baholash mumkin.


Shuningdek, “2016-yilning 31-dekabr holatiga ko‘ra, bankning omonatchilari soni 2 072 200 nafarni tashkil etib, 2015-yilning shu davriga nisbatan 210 609 nafarga yoki 11,0 foizga oshgan”.



3 –rasm. ATIB Ipotekabank ning 2011-2016-yillar davomida jalb qilgan omonatchilari soni dinamikasi⁴⁰

⁴⁰ Haydarov A. “Omonatlar-moliyalashtirishning muhim manbai” “Bozor, pul, kredit” jurnali.12/2016(235). -33-bet

Agarda rasmda berilgan ma'lumotlar asosida "Ipoteka-bank" ATIBning o'tgan 6 yil davomidagi mijozlar hajmini tahlil qiladigan bo'lsak, ular miqdori 2016-yilga kelib, 2011-yilga nisbatan 83,7 foizdan ziyodga yoki 944 468 nafarga ortgan. Mijozlar hajmidagi ijobiy o'zgarish, tabiiyki, ular tomonidan bankka qo'yiladigan jamg'armalarni oshirib, bank resurs bazasining ko'payishiga xizmat qilgan. Buning amaliy tasdig'ini esa "Ipoteka-bank" ATIBning turli yillarda nashr etilgan moliyaviy hisobotlarida ko'rishimiz mumkin.



4-rasm. "Ipoteka-bank" ATIB tomonidan mijozlardan jalb qilingan mablag'lar dinamikasi"⁴¹ (ming so'm)

4 - rasm ma'lumotlaridan ma'lumki, "Ipoteka-bank" ATIB jismoniy va yuridik shaxslarning bo'sh pul mablag'larini bank omonat(depozit)lariga jalb qilish bo'yicha uzluksiz va samarali ishlar olib borishi natijasida o'tgan davrlar mobaynida bu borada o'sish tendensiyasini saqlab kelmoqda. Xususan, 2016-yilning yakuniga kelib, mijozlardan jalb qilingan jami mablag'lar hajmi 3 050 mlrd. dan ortiqni tashkil etishi 2013-yil yakuniga nisbatan 63,4 foizga yoki 1 183 828 697 ming so'mga ko'pni tashkil etdi. Umuman olganda, 2016-yil yakunalariga kelib, "Ipoteka-bank" ATIB jalb qilingan mablag'lari hajmi bo'yicha 4-pog'onada (TIF Milliy bank, Asaka bank, Xalq bankidan keyin) bormoqda. Ammo, bankda aholi resurslarini jalb qilish bo'yicha yaratilgan asos bu ro'yxatda

⁴¹ "Ipoteka-bank" ATIB ning yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

yetakchilik qilish imkonini beradi.


“Ipoteka-bank” ATIB o‘z depozit siyosatida belgilangan maqsadlarga erishish yo‘lida jamg‘arma kassalar hamda ular orqali mijozlar hajmining ortishi natijasida, “Ipoteka-bank” ATIB mamlakatimiz birinchi Prezidenti tomonidan 2008-yil 31-oktabrdagi “Aholining omonatlarini jalb qilish bo‘yicha Respublika tijorat banklari o‘rtasida tanlov o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan har yili tashkil etib kelinayotgan tanlovning 2016-yil yakunlariga ko‘ra “Aholi omonatlarini jalb qilish bo‘yicha yilning eng yaxshi banki” nominatsiyasida 1-o‘ringa loyiq ko‘rildi.

Yuqorida erishilgan natijalarga, albatta, bank tomonidan aholi iqtisodiy sharoitlarini inobatga olgan holda joriy etilgan omonat turlarining samarasi deb baho berishimiz mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2009-yil 6-apreldagi ”Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo‘jalik sub‘ektlari bo‘sh pul mablag‘larini jalb etishni yanada rag‘batlantirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1090-sonli qarori ijrosini ta‘minlash asosida “Ipoteka-bank” ATIB boshqaruvining 2015-yil 19-avgustdagi 190-sonli qaroriga ko‘ra “Shodiyona” va “Tantana” omonat turlari joriy etildi. 2015-yilning 20-avgustidan amaliyotga kiritilgan “Shodiyona” muddatli omonatiga milliy valutadagi pul mablag‘larini ham naqd va naqdsiz (jismoniy shaxslarning bank plastik kartalaridan) joylashtirish mumkin bo‘lib, omonatchilar o‘zlarining bankdagi mavjud omonat mablag‘larini ushbu omonat turi bo‘yicha qayta rasmiylashtirish imkoniyatiga egalar. Shuningdek, ushbu omonat turiga mablag‘lar 45 kun muddatga qabul qilinadi va unga yillik 22 foiz miqdorida daromad hisoblanadi. Agarda, mijoz belgilangan muddat (45 kun) ichida bankka murojaat etmasa, uning omonat mablag‘i yana 45 kunga uzaytirilgan (prolongatsiyalangan) hisoblanadi.

Bundan tashqari, “Tantana” milliy valutadagi muddatli yutuqli omonat turi o‘zining jozibadorligi bilan aholi bo‘sh mablag‘larini jalb qilishda faol ravishda qo‘llandi. Ushbu “omонат bo‘yicha 5 mlrd. so‘mga yaqin aholi qo‘lidagi bo‘sh pul mablag‘lar bank depozitlariga jalb etildi. “Tantana” yutuqli omonat turi bo‘yicha

yutuqlar tiraji 2015-yilning 15-oktabrda Namangan shahrida o‘tkazilib, unda 100 xil turdagi pul yutuqlari omonatchilarga berildi”⁴².

Agarda, aholi bo‘sh mablag‘larini banklarga jalb qilish amaliyoti “Ipoteka-bank ATIB”da qanday olib borilayotganligini tahlil qiladigan bo‘lsak, bank bu borada ahamiyatli yutuqlarga erishganligi va bu yutuqlar zahirida, dastlab, O‘zbekiston birinchi Prezidentining 2009-yil 6-apreldagi “Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo‘jalik sub‘ektlari bo‘sh pul mablag‘larini jalb etishni yanada rag‘batlantirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ–10-sonli qarori ijrosi yotganligini bilishimiz mumkin. Unda belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirish davomida bank jalb qilingan mablag‘lari tarkibida jismoniy va yuridik shaxslarning pul qo‘yilmalari tarkibida sezilarli o‘zgarishlar bo‘lganiga guvoh bo‘lish mumkin. Buning amaliy isbotini quyida keltirilgan rasmni tahlil qilish davomida ko‘ramiz.



5-rasm. “Ipoteka-bank” ATIBda yuridik va jismoniy shaxslarning depozit salmog‘i bo‘yicha ma‘lumot⁴³(foizda)


Rasmda keltirilgan ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, o‘tgan yillar davomida davomida “Ipoteka-bank” ATIB jalb qilingan mablag‘lari tarkibini sifat jihatdan yaxshilashga erishilgan. Ya‘ni umumiy jalb qilingan mablag‘lar tarkibida aholi

⁴² MadatovSh. N. Dissertatsiya ishi. “Tijorat banklarining jismoniy shaxslar bilan depozit operatsiyalarini takomillashtirish”O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi.2016. -51 –bet

⁴³ “Ipoteka-bank” ATIBning yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

omonatlari salmog‘i 2013-2017-yillar oralig‘ida o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bunda 2017-yilning 1-yanvar holatida aholi omonatlarining jami omonatlar tarkibida tutgan ulushi o‘tgan 5 yil davomidagi eng yuqorini, ya‘ni 31 foizni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining har yilda budget tashkilotlari ishchi va xodimlarining maoshi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risidagi farmonlari qabul qilinadi. Ushbu farmon ijrosi fuqarolarning daromadlari hajmini oshishiga xizmat qiladi, shu bilan birga, bu o‘zgarish banklarda depozitlar hajmining oshishiga sabab bo‘lmoqda.



6-rasm. “Ipoteka-bank” ATIBdagi jamg‘arma , muddatli va talab qilib qolinguncha depozitlari bo‘yicha ma‘lumot⁴⁴.(mlrd. so‘mda)

Ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, “Ipoteka-bank” ATIB da omonat sifatida joylashtirilgan aholi bo‘sh pul mablag‘larining eng kam ulushi jamg‘arma omonatlarga to‘g‘ri kelgani holda ularning hajmi 2011 –yil boshida 2.8 mlrd. so‘mni tashkil etgan, 2016 - yilning 1-yanvar holatiga kelganda 70,9 mlrd so‘mga teng bo‘lgan. Ammo, 6 yil davomida ushbu o‘shish jamg‘arma omonatlarni jami omonatlar tarkibida eng kam ulushini saqlab qolgan. Jamg‘arma omonatlarni so‘nggi 2 yil davomida o‘shishga erishgani, asosan, aholining yangi turar joylar uchun olinayotgan kreditlarning boshlang‘ich badali hisobiga shakllantirilganligi ma‘lum bo‘ldi.

⁴⁴ “Ahbor-reyting” agentligining hisobotlari asosida ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Muddatli omonatlarga kelganda, ular 2011-yil boshida 63,4 mlrd. soʻmni yoki jami omonatlar tarkibida 40,5 foizni tashkil etgan edi. Ammo, 2015-yilga kelib, miqdor jihatdan barcha banklarda yirik hajmni tashkil etuvchi talab qilib olinguncha depozitlardan oshib, 2016-yilda 287,5 mlrd.ni tashkil etgani holda jami aholi mablagʻlarining 46,6 foiziga teng boʻlgan. Muddatli omonatlar tarkibida aholining maʼlum maqsadlarga joylashtirgan qoʻyilmalari tashkil etadi.

Jami omonatlar tarkibidagi eng muhim hisoblangan “Talab qilib olinguncha” omonatlarni tahlil qiladigan boʻlsak, ular 2015-yilga qadar eng yirik hajm (185,7 mlrd)ni tashkil etgani holda 2016-yilning 1-yanvar holatida umumiy omonat hajmida 41.7 foizni yoki 257,4 mlrd. soʻmi tashkil etdi. Ushbu turdagi omonatlarning asosiy tarkibini aholining oylik ish haqlari, stipendiya, pensiya toʻlovlari va boshqa turdagi mablagʻlar tashkil etadi.

Bugungi kunda “Ipoteka-bank” ATIB tomonidan jismoniy shaxslar uchun moʻljallangan 20 ta omonat turlari joriy etilgan boʻlib, ular orasida ayrimlari oʻzining ommabopligi bilan tanilib ham ulgurgan.

Endi esa, aholi oʻzlarining boʻsh pul mablagʻlarini koʻproq “Ipoteka-bank ATIBning qaysi omonatlariga joylashtirayotganligini koʻrib chiqamiz. Bunda asosan “Oila”, “Qaldirgʻoch”, “Nafis”, “Obod turmush”, “Tinchlik”, “Ustoz”, “Kommunal imkon”kabi omonatlar oʻzining yuqori foizlar toʻlanishi bilan aholi orasida keng foydalanishda ekanligi orqali ajralib turadi.

Umumiy hisobda tahlil qilinganda, 2017-yilning 1-yanvar holatiga kelib, bank tomonidan taklif etilayotgan 20 turdagi omonatlarga joylashtirilgan milliy valutadagi mablagʻlar hajmi 772 076,7 mln. soʻmni, xorijiy valutada joylashtirilgan mablagʻlar hajmi esa ularning Markaziy bankdagi rasmiy kursini hisobga olganda 49 985,4 mln. soʻmni tashkil etdi⁴⁵. Ushbu statistikadan kelib chiqqan holda milliy valutadagi mablagʻlar asosiy qismi bankning qaysi omonat turlariga joylashtirilganligi tahlil qildik.

Biz “Ipoteka-bank” ATIBning omonat qoldiqlari tahlili uchun ushbu omonatlarni tanladikki, ular oʻzining bankda yuqori qoldiqqa ega ekanligi bunga

⁴⁵ “Ahor reyting” agentligining 2016 –yil yakunlari boʻyicha hisoboti. -31-32-betlar

sabab bo'ldi.

1 –jadval.

Ipoteka-bank ATIB tomonidan aholiga taklif etilayotgan omonat turlaridagi qoldiqlari bo'yicha ma'lumot⁴⁶(mln.so'mda)

o:	Omonat nomi	Muddati	01.01.2015		01.01.2016	
			Omonat summa	Foiz ulushi	Omonat summa	Foiz ulushi
	Oila	15 kun, 1 oy va 2oy	16 347	7,1	17 357	6,1
	Qaldirg'och	1 va 5 oy	167 359	73,1	223 266	78,2
	Nafis	15 kun, 1 oy, 45 kun, 2 oy	4 797	2,1	1 038	0,4
	Obod turmush	3, 6 va 9 oy	15 272	6,7	9 660	3,4
	Tinchlik	1, 2, 3, 4 va 24 oy	214	0,1	21 890	7,7
	Ustoz	3, 6 va 9 oy	21 813	9,5	6 824	2,4
	Boshqa omonatlar		3 043	1,3	5 415	1,9
	Jami		228 845	100	285 451	100

Ushbu jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, "Qaldirg'och" muddatli omonat turiga joylashtirilgan mablag'lar hajmi 1-yanvar 2015-yilda 73.1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1-yanvar 2016-yilda esa uning ulushi 5,1 foizga oshib, 78,2 foizni tashkil etgan. "Ipoteka-bank" ATIBning aholiga taklif etayotgan omonatlari katalogi o'rganilganda, ushbu omonat turining boshqa omonat turlari hajmidan yuqoriligiga sabab undagi foiz to'lovi bilan farqlanadi.(1-ilova)

Bugungi kunda "Ipoteka-bank" ATIBda eng yuqori foizli omonat turi bu "Qaldirg'och bo'lib, u bo'yicha to'lanadigan yillik foiz to'lovi 20 foiz qilib belgilangan. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, aholi bo'sh pul mablag'ini ko'paytirish uchun, aynan, ushbu omonat turiga joylashtirishi shubhasizdir.

⁴⁶ Madatov Sh. N. Dissertatsiya ishi. "Tijorat banklarining jismoniy shaxslar bilan depozit operatsiyalarini takomillashtirish" O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi.2016. 55 –bet.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida boshqa banklardagi ko'pgina omonatlar uchun belgilangan eng yuqori foiz stavkalar miqdori ham yetarli darajada o'rganib, tahlil qilib chiqildi. Natijada, ularda ham keng miqyosda omonatchi jalb etayotgan omonatlarning yillik foiz stavksi 20 foiz ekanligi aniqlandi. Ammo, inobatga olish lozimki, banklararo raqobat sharoitida agar qaysidir bank omonat uchun yuqoriroq foiz belgilasa, tabiiyki, bo'sh mablag'ga ega bo'lgan aholi o'sha banklar tomonga o'tib ketadi. Biroq "Ipoteka-bank" ATIBda ushbu salbiy holatga tushib qolmaslik va uni oldini olish uchun qator amaliy-tashkiliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan:

- Boshqa banklarning foiz stavkalarini kunlik kuzatib borish;
- Aholiga qulay bo'lgan shartlarda omonat turlarini taklif qilib borish;
- Omonatchining naqd va naqd pulsiz shaklda mablag' joylashtirish bilan bog'liq murojaatini o'z vaqtida qondirib borish;
- Bankning omonatlar bilan bog'liq bo'lgan turli innovatsion xizmatlari bilan omonatchilarni doimiy ravishda xabardor qilib borish;

Yuqorida keltirilgan amaliy ishlarni olib borish natijasida, aholi bo'sh pul mablag'larini jalb qilishda banklararo raqobat sharoitida "Ipoteka-bank" ATIB o'zining uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan depozit siyosatini amalga oshirib bormoqda.

Biz yuqorida aholi bo'sh mablag'larini jalb qilish borasida mamlakatimizda allaqachon brend bank darajasiga ko'tarilgan "Ipoteka-bank" ATIBning ushbu sohada olib borgan ishlari bilan tanishib chiqdik. Natijada ayon bo'ldiki, yuqori statistik ko'rsatkichlarga erishish uchun bank tomonidan omonat va depozitlarning yangi jozibador turlarini joriy qilish, bank jamg'arma (kommunal va maxsus) kassalarini aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib hududlarda tashkil etish, hamda aholi bo'sh pul mablag'larini bank amaliyotiga jalb qilishda muqobil vosita hisoblanuvchi omonat sertifikatlarini muomalaga chiqarish yo'li bilan aholi, xo'jalik sub'ektlarining bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga keng jalb etish vazifasi belgilangan. Ushbu vazifalar ijrosini samarali tashkil etish uchun bank depozit siyosatini tuzishda aholi ehtiyojlari ham inobatga olinmoqda.

2.2. Banklararo raqobat sharoitida bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb etish amaliyoti tahlili

Bugungi kunda dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti tizimi amal qiladi. Bunday tizimda faoliyat yuritish yoki “jon saqlab qolish uchun” barcha bir-biri bilan raqobatga kirishishga majbur bo‘ladi. Ammo, bunday sharoitda faqatgina eng so‘nggi, yangi vositalarga ega bo‘lganlarga raqobat yutib chiqib, yana “yashashda davom etadi”. Ayniqsa, bunday vaziyat moliya-bank sohasida ro‘y beradigan bo‘lsa, unda mag‘lub bo‘lganlar nafaqat o‘z faoliyatini to‘xtatishadi, balki o‘zlariga tegishli bo‘lgan barcha narsani raqobatda g‘olib chiqqan tomonga berib yuborishga majbur bo‘lishadi.


Banklar o‘rtasida ro‘y beradigan raqobat asosan moliyaviy holati barqaror bo‘lgan mijozlar va ularning pul mablag‘larini o‘zlariga jalb qilishga qaratilgan. Biz bitiruv malakaviy ishining ushbu rejasida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan banklarning halol raqobat sharoitida aholi va xo‘jalik sub’ektlari bo‘sh pul mablag‘larini o‘zlariga jalb qilish borasidagi amaliy holatni o‘rganamiz va tahlil qilamiz.

Demak, “2017-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklari soni 27 tani tashkil etib, ularning 8 tasi xususiy va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi tijorat banklari hisoblanadi.

Bugungi kunda Respublika hududlarida tijorat banklarining 855 ta filiali faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, bank muassasalarini aholi zich joylashgan manzillar hamda ishlab chiqarish hududlariga yaqinlashtirish, kommunal va boshqa to‘lovlarni to‘lashlari uchun yanada qulayliklar yaratish maqsadida tijorat banklarining 4 299 ta mini-banki va maxsus kassalari tashkil etilgan bo‘lib, shularning 2 221 tasi qishloq joylaridagi aholiga, ayniqsa, fermer xo‘jaliklariga sifatli bank xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.

Bundan tashqari, bozorlar hududida naqd pul tushumlarini, bozor xizmatlari hamda boshqa to‘lovlarni qabul qiluvchi 537 ta maxsus kassalar, shuningdek, aholidan kommunal va boshqa majburiy to‘lovlarni bevosita aholi yashash

joylariga borib qabul qiluvchi 506 ta ixtisoslashtirilgan ko‘chma kassalar faoliyat yuritmoqda”⁴⁷. Ushbu yaratilgan moliya –bank muassasalarining barchasi halol raqobat sharoitida bir –biridan ustun kelish uchun, albatta, o‘z mablag‘laridan ko‘ra ko‘proq jalb qilingan mablag‘lardan foydalanishadi. Bunday holatni banklar misolida o‘tgan 2016-yil uchun tahlil qiladigan bo‘lsak, “2016-yil mobaynida mijozlarga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, xususan, omonatlarning yangi va mijozlar talablariga mos jozibador turlarini joriy etishga alohida e‘tibor qaratildi. “2016-yil yakuniga ko‘ra tijorat banklari tomonidan jalb etilgan depozitlarning umumiy hajmi 2015-yilga nisbatan 25,2 foizga oshib, 44,6 trln. so‘mni tashkil etdi”⁴⁸.



7-rasm. Tijorat banklarning jami depozitlari qoldig‘i⁴⁹ (trln. so‘m)

Rasmda keltirilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarda 2017 – yil 1-yanvar holatidagi jami depozitlar hajmi 2011-yil 1 - yanvardagi hajmidan 5.13 martaga yoki 36 trln. so‘mga ko‘pni tashkil etgan. Ushbu yo‘nalishda erishilgan ko‘rsatkichlar mamlakat yalpi ichki mahsuloti umumiy hajmi (199,3 trln. so‘m) ning 25,5 foiz, ya‘ni chorak qismini tashkil etgani holda, “banklardagi aholi omonatlari hajmi dinamikasi aholi real daromadlarining o‘shidan yuqori-30,4 foizni tashkil etdi”⁵⁰.


⁴⁷ Monetar siyosatning 2017-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. Bank axborotnomasi.No:6, 09.02.2017-yil. -7-bet

⁴⁸ Monetar siyosatning 2017-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. Bank axborotnomasi.No:6, 09.02.2017-yil. 7-bet

⁴⁹O‘zbekiston Markaziy banki yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

⁵⁰ “Ahor- reyting” agentligining ma‘lumotlari asosida

Mamlakatimizdagi tijorat banklarida jalb qilingan mablag'lar tarkibida tranzaksion depozitlar hajmining belgilangan standart talablardan ko'pligi ushbu sohada hali juda ko'p islohotlar o'tkazish lozimligini ko'rsatadi.



8-rasm. O'zbekistondagi tijorat banklar depozit mabaalari tarkibi
⁵¹(foizda, yilning 31-dekabr holatida)


Agarda rasmda keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, mamlakatimiz banklaridagi mavjud umumiy depozitlar bazasida tranzaksion depozitlarning ko'pligini kuzatishimiz mumkin. Bu holat xalqaro bank amaliyotiga zid hisoblanadi. Chunki, xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan me'yoriy talabga ko'ra, talab qilib olinadigan depozitlarning tijorat banki jami depozitlar bazasidagi ulushi 30 foizdan oshmasligi zarur hisoblanadi. Ammo, ta'kidlashimiz lozimki, umumiy depozitlar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlarning o'zgarishi 6 yil davomida kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ya'ni talab qilib olinguncha depozitlarning 2016 –yildagi 57,2 foiz holati 6 yil ilgari 64,6 foiz hajmdan pastligini ko'rsatmoqda. Bu esa, kelajakda bank depozitlari tarkibidagi sifat o'zgarishlari kuzatilishi mumkinligidan darak beradi. Chunki, muddatli va jamg'arma depozitlar hajmida 6 yil davomidagi o'sish holati bunga turtki berishi mumkin.

Bugun mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan aholiga milliy va chet el valutasida cheklanmagan miqdorda va muddatlarda 250 dan ortiq omonat turlari

⁵¹ "Ahbor reyting" agentligining yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

taklif etilmoqda. “Depozitga qo‘yilayotgan mablag‘larning miqdori oxirgi 5 yilda 3,5 marotabaga, 2016-yilda 2,6 foizga ortdi”⁵².

Quyida keltirilgan rasmda ushbu depozitlar tahlilini ularning sub’ektiga ko‘ra ko‘rib chiqamiz.



9-rasm. “Tijorat banklarida depozitlar miqdorining o‘shish dinamikasi”⁵³ (mlrd. so‘m)

Yuqorida keltirilgan rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamiz tijorat banklarida 2008-2017 –yillar davomida ham yuridik ham jismoniy shaxslarning depozit mablag‘lari o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa aholi va xo‘jalik sub’ektlari daromadlari miqdorining o‘sganligi bilan ifodalanadi. Umumiy hisobda tahlil qiladigan bo‘lsak, mamlakatimiz tijorat banklaridagi yuridik va jismoniy shaxslarning omonat (depozit) lari hajmi 2017-yilning 1-yanvar holatiga kelganda 42 397 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, bu 2008-yildagi umumiy natijadan 38 127 mlrd. so‘mga ortiq yoki 9,9 martdan oshiqqa o‘sganligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi barcha tijorat banklari aholining va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish maqsadida milliy valutada va bir nechta xorijiy valutadagi omonat turlarini taklif qilmoqdalar.

Tijorat banklar orasidagi aholining bo‘sh mablag‘larini jalb qilish borasidagi raqobatni o‘rganishda ular taklif etayotgan omonat turlarining miqdoriga nazar tashlaydigan bo‘lsak, raqobatda qaysi banklar yetakchilik

⁵² “Bank axborotniması” gazetasi. 09.02.2017. 12-bet

⁵³ “Ahor- reyting” agentligining ma’lumotlari asosida.muallif tomonidan tayyorlandi

qilayotgan ekanliklari biroz bo'lsada oydinlashadi. Jumladan, O'zbekiston TIF Milliy banki aholiga 27 turdagi omonat turlarini, Kapitalbank 20 turdagi, Ipak yo'li banki 24 ta, Turkistonbank 9 ta, Hamkorbank 14 ta, Xalq bank 23 ta Ipoteka-bank 20 ta, Asakabank 35 ta, Mikrokreditbank 21 ta, O'zbekiston sanoat-qurilish banki 21 ta, Agrobank 21ta, Asia-Alliance bank 13 ta, DAVR bank 6 ta, UTBank 3 ta, Universalbank 13 ta, Trastbank 13ta, Turon bank 12 ta, Aloqabank 26 ta, Invest Finans Bank 7ta, Madad Invest Bank 3 ta turdagi omonat turlarini aholi bo'sh mablag'larini jalb qilish uchun taqdim etishmoqda⁵⁴.(2-ilova)

Banklarning taklif etayotgan omonat turlari miqdori bilan ular yillik moliyaviy hisobotlaridagi jalb qilingan mablag'lar hajmi solishtirilganda ayon bo'ldiki, omonatlar miqdori yuqori bo'lgan banklarda jalb qilingan mablag'lar hajmi ham katta hajmdaligi bilan ajralib turibdi. Masalan, 2016 –yildagi faoliyat yakunlari bo'yicha banklar tomonida ommaviy axborot vositalari va davriy nashrlarda (“Bank axborotnomasi” gazatesi nazarda tutilmoqda) e'lon qilingan moliyaviy hisobotlar tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkichga TIF Milliy banki erishgan bo'lib, uning 2016-yil davomida jalb qilingan mablag'lari hajmi 6 406 873 ming so'mni tashkil etgan⁵⁵. Bank tomonidan taklif etilayotgan omonatlar esa 19 turdagi milliy valutada va 8 turdagi xorijiy valutadagi omonatlar bo'lib, “Talab qilib olinguncha”, “Plastik kartochka”, “Xazina”, “Nihol”, “Boychechak”, va “Tarona” nomli omonat turlariga aholining qiziqishi yuqori bo'lgan. Ushbu omonat turlari bo'yicha tahlil olib borilganda, “Xazina” omonatiga mablag'lar bir yilga minimal 1 mln. so'mda qabul qilinib, bu omonat turi bo'yicha 19,0 foiz yillik daromad to'lanadi⁵⁶. “Nihol” jamg'arma omonatiga pul mablag'lari 16 yoshgacha bo'lgan bolalarning ota-onalari, qarindosh-urug'lari tomonidan kelajakda foydalanish uchun qo'yiladi. “Omonatning muddati 5 yil bo'lib, yillik 20 foiz miqdorida daromad to'lanadi⁵⁷. TIF Milliy bankda xuddi shunday shartlarga

⁵⁴ Muallif tomonidan banklarning internetdagi saytlari yordamida tayyorlandi

⁵⁵ TIF “Milliy bank”ning “Bank axborotnomasi” gazetasida e'lon qilingan audit natijalari. 16.05.2017. -5-bet

⁵⁶ <http://www.Uzpsb.uz/Jismoniy-shaxslarga/Omonat-turlari>

⁵⁷ <http://www.Uzpsb.uz/Jismoniy-shaxslarga/Omonat-turlari>

ega bo‘lgan xorijiy valutadagi “Boychechak” jamg‘arma omonat turi mavjud bo‘lib, unga yillar davomida qo‘shimcha mablag‘lar kiritib borilishi mumkin.

Endi, mamlakatimizdagi yana bir yirik banklardan biri bo‘lgan “O‘zbekiston sanoat-qurilish bank”ning omonat turlarini ko‘rib chiqamiz. “O‘zbekiston sanoat-qurilish bank” bugungi kunda 14 ta milliy valutada va 7 ta xorijiy valutadagi omonat turlarini taklif etayotgan bo‘lib, 2016 –yil davomida aholi va xo‘jalik sub’ektlaridan jalb qilingan barcha mablag‘lari hajmi 2 647 856 793 ming so‘mni tashkil etgan⁵⁸. Bank tomonidan "Kafolatli daromad" omonati, "Ko‘klam", "Kommunal to‘lovlar uchun", "Avto-1" kabi ko‘plab muddatli, jamg‘armali, yutuqli omonatlarni aholi bo‘sh mablag‘larini jalb qilishda samarali foydalanilmoqda.

“O‘zbekiston sanoat-qurilish bank”ning jozibador omonat turlaridan biri bo‘lgan “Bolalar maqsadli omonati”iga jismoniy shaxslar tomonidan 10 yil muddatga mablag‘ qo‘yilib, unga bank tomonidan yillik 14 foiz ustama haq to‘lanadi.⁵⁹ Ushbu omonatning boshqalardan farqi shundaki, unga jamg‘arma omonat ochilgan bolaning ota-onasi, yaqin qarindoshlari yoki vasiy shaxslar tomonidan joylashtiriladigan pul mablag‘lari bolalar 16 yoshga to‘lguncha va undan keyin ham qabul qilinadi. Bundan tashqari, bank tomonidan xorijiy valutadagi "Multi valuta" omonati valutada omonat qo‘yuvchilar uchun chinakam daromadli va qulay hisoblanadi. Chunki, omonatga boshlang‘ich badal 300 AQSH dollari bo‘lib, omonatchining xohishiga ko‘ra hisoblangan foiz daromadlari tegishli valutalar(USD, GBP, Euro) da har oyda to‘lanadi.

Umuman, mamlakatimizda banklararo raqobat sharoitida banklarning aholi va xo‘jalik sub’ektlarining bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilishdagi faoliyati natijalarini 3 guruhda tasniflash mumkin:

1-guruh. “Mablag‘ jalb qilishda yetuk rivojlangan banklar”. Bu guruhdagi banklarda mijozlardan jalb qilingan mablag‘larnining umumiy hajmi 2 trln. so‘mdan ortiqni tashkil etadi. Bunday banklar 9 ta bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

⁵⁸ “O‘zbekiston sanoat-qurilish banki”ning “Bank axborotnomasi” gazetasida e‘lon qilingan audit natijalari asosida. 20.04.2017. -4-bet

⁵⁹ http://www.Uzpsb.uz/Jismoniy_shaxslarga/Omonat_turlari

O‘zbekiston TIF Milliy bank, “Asakabank” ATB, “Xalq bank” ATB, “Ipoteka-bank” ATIB, ChEKI “Hamkorbank” ATB, “O‘zbekiston sanoat-qurilish banki” ATB, “KDB Bank O‘zbekiston” AJ, “Kapitalbank” ATB hamda “Agrobank” ATB kabi banklar kiradi.

2-guruh. “Mablag‘ jalb qilishda rivojlangan banklar”. Bunday banklarda mijozlardan jalb qilingan mablag‘lar umumiy hajmi 1 trln. so‘mdan ortiqni tashkil etadi. Bunday banklar soni 5 ta bo‘lib, bu guruhdan quyidagi banklar o‘rin olgan: “Ipak yo‘li” AITB, “Trastbank” XATB, “Orient-Finance” XATB, “Qishloq qurilish bank” ATB hamda “Agrobank” ATB kabi banklar.

3-guruh. “Mablag‘ jalb qilishda rivojlanayotgan banklar”. Bunday banklarda mijozlardan jalb qilingan mablag‘lar umumiy miqdori 1 trln. so‘mdan kam hajmga ega. Mamlakatimizda bunday banklar soni 13 ta bo‘lib, bu guruhdan quyidagi banklar o‘rin olgan: “Mikrokreditbank” ATB, “Asia-Alliance Bank” ATB, “Invest Finance Bank” ATB, “Turonbank” ATB, ChEKI “Savdogarbank” ATB, “Davrbank” XATB, “Ravnaq-bank” XATB, “Uzbeksitan-Turkish Bank” AJ, “Turkistonbank” XATB, “Universalbank” XATB, Eron “Soderot” banking O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahridagi sho‘ba banki, “Hi-Tech Bank” XATB hamda “Madad Invest Bank” XATB.

Qayd etishimiz lozimki, yuqorida tuzilgan guruhlar biz tomonimizdan mustaqil ravishda, banklarning yillik moliyaviy hisobotlari o‘rgangan holda tuzilgan bo‘lib, ushbu guruhlardagi banklar tartibi har yilda o‘zgarib turishi mumkin. Chunki, har bir bankda aholi va xo‘jalik sub’ektlarining bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilishda hali ishga solinmagan imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ularga misol sifatida zamonaviy-axborot texnologiyalaridan faol foydalangan holda omonatchilarni jalb qilish, marketing faoliyatini rivojlantish, aholiga bo‘sh pul mablag‘larini bank omonatiga qo‘yishning afzalliklari va undan ko‘riladigan daromad to‘g‘risida ma’lumot beruvchi reklama faoliyatini rivojlantirish hamda omonat va jamg‘armalarning yangi jozibador turlarini amaliyotga kiritish kabi imkoniyatlarni kiritishimiz mumkin.

2.3. Aholi bo'sh pul mablag'larini banklarga jalb etish bo'yicha xorij tajribasi

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishining II bobi 2-rejasida ta'kidlaganimizdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqalardan o'zib, o'zining ko'zlagan maqsadiga erishmoqchi bo'lgan har qanday shaxs yoki sub'ekt boshqalar bilan raqobatga kirishishni chetlab o'tolmaydi. Ushbu jarayonni moliyaviy globallasuv miqyosida olganda, bank tizimi rivojlangan xorij mamlakatlarida bank aktiv operatsiyalarini amalga oshirish uchun resurslarni jalb qilishda asosiy e'tibor yirik moliyaviy salohiyatga ega bo'lgan korporatsiyalar va ishlab chiqaruvchilarning bo'sh pul mablag'laridan foydalanishga qaratiladi. Ammo, biz ta'kidlagan, bank tizimi rivojlangan xorij mamlakatlari bank amaliyotida aholi bo'sh pul mablag'larini jalb qilish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

Globalashuv jarayonlari chuqurlashayotgan va milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi o'sayotgan bir pallada telekommunikatsiya sohasi iqtisodiyotning alohida olingan sohasi sifatida rivoj topayotganligi hamda iqtisodiyotning boshqa sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanishiga doir masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda. Texnik imkoniyatlar kengayishi va mazkur sohaning salohiyatini amaliyotda to'laqonli qo'llash milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi hamda shu tarzda xususiy va davlat tuzilmalarining strategik barqarorligini ta'minlaydi.

Jahon bozorining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlariga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarning kiritilishi va ularning samarali qo'llanishi korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga zamin yaratib, iqtisodiyotning turli jabhalarida mavjud tovar va xizmatlar bozorlarini kengaytiradi hamda yangi bozorlarni yaratish uchun sharoit yaratadi va shu orqali aholi turmush tarzi yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Boshqa tomondan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning rivojlanishi bank mijozlarining bank binosiga bo'ladigan qatnovini kamayishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, 2016-yil davomida Britaniyaliklar banklarga 427 mln marotaba tashrif buyurgan bo'lsa, 895 mln marotaba bank ilovalaridan foydalanishgan⁶⁰. Bundan tashqari, jahon miqyosida olganda, xorijlik tahlilchilar bildirishicha, 2020 - yilga borib mijozlarning banklarga tashrifi 2,86 mlrd. ga yetib, ilovalardan foydalanishlar soni esa 8 barobar ko'p, ya'ni 23 mlrd marotabaga to'g'ri kelishini bashorat qilishmoqda. Shuningdek, ekspertlar kelasi 10 yil orasida amalga oshirilgan to'lovlardan tushadigan bank daromadlari keskin qisqarishini ham tahmin qilishmoqda. Chunki, aborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi natijasida banklarning to'lovlarni amalga oshirish xizmatini aloqa kompaniyalari ham amaliyotga tatbiq etishlari mumkin bo'ladi.

Axborot-kommunikatsiya sohasida erishilgan yuksak yutuqlarni bank amaliyotida qo'llash bo'yicha xorij mamlakatlari bank tizimi tahlil qilinganda, tabiiyki, birinchi navbatda AQSHga e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda, AQSH bank amaliyotida aholiga depozit amaliyotlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xizmatlar ko'rsatish, ya'ni aholining bank bilan bog'liq ishlarida ularning vaqtlarini tejash uchun masofadan turib, internet tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladi. Aholiga ularning bo'sh pul mablag'larini bankka jalb etish maqsadida depozit xizmatlarida muhim bo'lgan onlayn depozitlardan keng foydalaniladi. Bundan tashqari aholi va bank o'rtasida hujjat bilan bog'liq muammolar, byurokrtiyani yo'q qilish uchun AQSHda avtomatlashtirilgan bank tizimiga o'tilmoqda. Misol, uchun 2017 –yilning yanvar oyida AQSHning eng yirik banklaridan biri bo'lgan “Bank of Amerika” mamlakatning eng yirik moliyaviy markazi bo'lgan Nyu-Yorkda butunlay avtomatlashtirilgan bank filialini ishga tushirdi. Natijada esa aholi o'zlari uchun zarur bo'lgan bank xizmatlaridan avtomat dasturlashtirilgan kompyuter orqali foydalanishmoqda. Bo'sh pul mablag'larini esa ATM (Automated teller machine) orqali bankdagi hisob raqamlarga joylashtirishmoqda. Bundan tashqari har bir bankning internetda mobil ilovasi mavjud bo'lib, bank

⁶⁰ Muxtorova D. “Banklar va mobil operatorlar hamkorligining yangi bosqichi”. “Bank axborotnomasi”. 15.06.2017. -9-bet

xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar ushbu ilovalarni ishlatgan holda o'zlarining bankdagi talab qilib olinguncha hisobraqamlaridagi mablag'larni o'zlari tomonidan har xil turdagi jamg'armalarga, onlayn omonat(depozit)larga joylashtirilishi mumkin. Ushbu turdagi depozitlar foydalanuvchiga uzoqdan turib boshqarilish, kerakli vaqtda zarur to'lovni amalga oshirish va o'zining qo'shimcha mablag'larini joylashtirish imkonini beradi. Yana bir qulaylik tomoni, omonatchilar o'z mablag'larini bankka kelmasdan turib, qiyinchiliklarsiz rasmiylashtira oladilar.

Onlayn depozitlarni bank tizimi uchun asosiy afzalliklaridan yana biri-butun depozit muddati davrida ma'murchilikka (boshqaruvga) doir resurslarni juda ko'p miqdorda tejash, shuningdek, onlayn depozitni avtomatik ravishda kuzatish imkoniyatining mavjudligidir. AQSH banklarida keng miqyosda amaliyotga tatbiq etilgan onlayn depozitlar, bank onlayn mahsulotlari safini yanada kengaytirish hamda bank bo'linmalari tarmog'iga yuklanadigan vazifalarni anchagina kamaytirishga imkon beradi.

Umumiy holda, AQSH bank tizimdagi onlayn juda ko'p afzalliklarga ega hisoblanadi va aynan ular hisobidan AQSH banklarida yuqori hajmda depozit mablag'lari to'planadi. O'z navbatida onlayn depozitlar bank mijozlarini vaqtini tejab, bank binosiga bormagan holda ushbu bank xizmatidan foydalanish imkonini ham beradi.



10 –rasm. Onlayn depozitning afzalliklari⁶¹

⁶¹ Internetdagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

AQSH bank tizimida resurslar jalb qilish amaliyotida onlayn depozitlarni qo‘llash orqali mamlakatdagi mavjud banklarning 3 tasi (JPMorgan Chase Bank, Wells Fargo&Co va Bank of Amerika) da jalb qilingan mablag‘lar hajmi 1 trln AQSH dollaridan oshadi, 17 ta bankning jalb qilingan mablag‘lari hajmi 100 mlrd. AQSH dollaridan, 83 ta bankda 10 mlrd. AQSH dollaridan, 533 ta bankda esa aholi va xo‘jalik sub’ektlaridan jalb qilingan mablag‘lar umumiy hajmi 1 mlrd. AQSH dollaridan ziyodni tashkil etadi⁶². Ko‘rinib turibdiki, onlayn depozitlarning AQSH bank tizimida bergan samarasi uni bizning bank amaliyotimizda qo‘llashga arzigulik bo‘lgan innovatsion bank xizmatlaridan biri bo‘la oladi.

AQSHdan farqli tarzda Yaponiyada aholi bo‘sh mablag‘larini qabul qilish, bankomatlar orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir bankomat xotirasiga bank xizmatlaridan tashqari, qo‘shimcha ravishda mijozlarning elektron omonat daftarchalari joylashtirilgan bo‘lib, ushbu omonat daftarchasiga mijozning kirim va chiqim amaliyotlari ATM (Automated teller machine) bankomatlari orqali qayd etib boriladi.⁶³

AQSH va Yaponiyadagi kabi Koreya Respublikasida ham yuqorida qayd etib o‘tilgan axborot-texnologiyalaridan foydalangan holda aholi bo‘sh mablag‘lari banklar amaliyotiga jalb etiladi. Ushbu texnologiyaga qo‘shimcha tarzda bank mijozlarining xavfsizligini oshirish maqsadida mijozning barmoq izlari na‘munasi bankomatlardagi omonat daftarchasiga kiritiladi.

Jahonda yana bir alohida bank tizimi borki, u o‘zining foyda olishga qaratilmagan, ammo, yil yakunlarida katta daromadga erishuvchi jamg‘arma kassalari bilan ajralib turadi. Bu, albatta, Germaniya bank tizimidir.

Germaniyadagi bank sohasi Yevropaning eng diversifikatsiyalashtirilgan bank tizimini o‘zida namoyon etadi. Ushbu mamlakat bank tizimi rivojining tajribasi, kreditlash mexanizmlari va aholi bo‘sh pul mablag‘larini jalb qiluvchi jamg‘arma kassalari (sparkassen) faoliyatini o‘rganish biz uchun juda katta foyda keltirishi tabiiy.

⁶² <http://www.USBankLocations.com> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tarjima qilindi

⁶³ [http://www.justlanded.com/Japan-Guide/Money/Money in Japan](http://www.justlanded.com/Japan-Guide/Money/Money%20in%20Japan)

Germaniya bank tizimida ayni paytda o‘z ichida 1776 ta institutni qamrovchi uch toifadagi bank guruhlar mavjud bo‘lib, “mamlakat bank tizimining kredit hajmi YalMning 245 foiziga tengdir”⁶⁴.

Birinchi guruh tarkibida Germaniya bank tizimidagi jami aktivlarning 39 foiziga ega 273 ta xalqaro va xususiy tijorat banklari faoliyat yuritadi.

Ikkinchi guruh tarkibida 431 ta hududiy jamg‘arma kassalari (Sparkassen) va ularning markaziy institutlari hisoblanmish “Landesbanken”lar o‘rin egallagan. Ularga bank tizimidagi jami aktivlarning 27 foizi tegishli⁶⁵. Jamg‘arma kassalarning o‘ziga xos jihati shundaki, ularning faoliyati hudud jihatidan qat‘iy belgilangan qismlarda amalga oshiriladi. Jamg‘arma kassalari bir - birlari bilan o‘zaro raqobatga kirishmaydi va qat‘iy belgilangan hududlarda - kichik shaharcha, tumanlarda ishlaydi. Mohiyatan ular jahonning eng yirik moliyaviy institutlaridan biri (“Sparkassen-Finanzgruppe”) atrofida birlashib, katta bo‘lmagan kredit institutlarini o‘zida ifoda etadi. Mazkur muassasa jamg‘arma kassalaridan tashqari yirik yer banklari, hududiy qurilish jamiyatlari (“Landesbausparkassen”), sug‘urta va investitsiyaviy kompaniyalarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Uchinchi guruh safida esa 1000 ta kooperativ banklar mavjud bo‘lib, ular bank tizimidagi aktivlarning 14 foizga egalik qiladi.

Demak, ko‘rinib turibdiki Germaniyada aholi bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb qilishda shparkassalar hal qiluvchi bo‘g‘inni tashkil etadi. Ushbu moliya instituti ilk bor 1778 –yilda tashkil topgan bo‘lib, ularning asosiy maqsadi kam mablag‘ga ega bo‘lgan aholining mablag‘larini jalb qilish orqali ularni pul jamg‘arishiga ko‘maklashish va ularni tijorat bilan shug‘ullanishiga yordam berish hisoblanadi.

Jahon moliyaviy inqirozi davrida jamg‘arma va kooperativ muassasalar barqaror natijalarga erishishidan tashqari jamg‘arma kassalari faoliyatining muvaffaqiyatli ekanligi hamda Germaniya hududlarining iqtisodiy rivojlanishiga

⁶⁴ Jo‘rayev I. “Hududiy bank tizimi rivoji va diversifikatsiyalashuvi: Germaniya tajribasi”. “Bank axborotnomasi” gazetasi. 26.05.2017. 10-bet

⁶⁵<http://www.Wikipedia.com/German public bank>

mazkur muassasalarning hissasi yuqori bo'lganini bir qator ixtisoslashtirilgan tadqiqot natijalari ham tasdiqladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga qo'shimch sifatida ta'kidlashimiz mumkinki, 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015-yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli qarori ijrosi bo'yicha 2011-2015 yillarda aholi va xo'jalik sub'ektlarining tijorat banklaridagi depozitlari hajmini 2,5 martaga oshirishni rejalashtirishni tashkil etish maqsadida Germaniyaning "Xalqaro hamkorlik bo'yicha jamg'arma kassalar fondi"ning ekspertlari jalb etilganligining o'zi bu mamlakatda aholi bo'sh pul mablag'lari bilan ishlash qay darajada yuksak taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

2-bob bo'yicha xulosa

Bitiruv malakaviy ishi ikkinchi bobi bo'yicha belgilangan ma'lumotlarni o'rganish davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, "Ipoteka-bank" ATIB tomonidan joriy etilgan har xil turdagi omonat va depozitlar o'zining aholi hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga har tomonlama maqbulligi bilan ajralib turganligi, omonat (depozit) turlarining muddatlari, foizlari va boshqa shartlari aholi ehtiyojlariga ko'ra joriy etilganligi uning ushbu yo'nalishda 2016-yil yakunlari bo'yicha "Aholi omonatlarini jalb qilish bo'yicha yilning eng yaxshi banki" nominatsiyasida 1-o'ringa loyiq ko'rildi.

Ikkinchidan, bugun mamlakatimizdagi " tijorat banklari tomonidan aholiga milliy va chet el valutasida cheklanmagan miqdorda va muddatlarda 250 dan ortiq omonat turlari taklif etilmoqda. Depozitga qo'yilayotgan mablag'larning miqdori oxirgi 5 yilda 3,5 marotabaga, 2016-yilda esa 25,2 foizga oshdi"⁶⁶. Biroq bu sohada asosiy kamchilik bo'lib, banklardagi umumiy depozitlar hajmida hali hamon talab qilib olinguncha depozitlarning yirik ulushdaligi ushbu yo'nalishda muammoli bo'lib qolmoqda qolmoqda. Chunki xalqaro bank amaliyoti bo'yicha

⁶⁶ Akromov B. "Aholi omonatlarini jalb qilishda faol banklar". "Bank axborotnomasi". 09.02.2017-yil. -12-bet

talab qilib olinguncha depozitlarning yalpi depozitlar bazasidagi ulushi 30 foizdan oshmasligi kerak. Chunki, ushbu turdagi depozitlar nobarqaror hisoblanib, banklar undan doimiy ravishda foydalana olmaydi.

Uchinchidan, aholi bo'sh mablag'larini jalb qilish bo'yicha xorij mamlakatlari, xususan, AQSH, Yaponiya va Koreya Respublikasida foydalaniladigan usullar mamlakatimiz bank amaliyotida qo'llanilsa, ular orqali banklarning jalb qilingan mablag'lari hajmida sezilarli natijalarga erishish mumkin. Buning uchun faqatgina zamonaviy–axborot texnologiyalarni mamlakatimiz banklari amaliyotiga yanada ko'proq joriy etish talab qilinadi. Bundan tashqari, Germaniyaning aholi bo'sh pul mablag'larini jalb qiluvchi hududiy jamg'arma kassalar-shparkassa (sparkassen) lar amaliyoti o'zining aholi manfaatlariga ijtimoiy-iqtisodiy yo'naltirilganligi bilan har qanday mamlakat bank tizimiga o'rnak bo'la oladi, jumladan, mamlakatimiz O'zbekistonga ham.

Germaniyadagi bank sohasi Yevropaning eng diversifikatsiyalashtirilgan bank tizimini o'zida namoyon etadi. Ushbu mamlakat bank tizimi rivojining tajribasi, kreditlash mexanizmlari va aholi bo'sh pul mablag'larini jalb qiluvchi jamg'arma kassalari (sparkassen) faoliyatini o'rganish biz uchun juda katta foyda keltirishi tabiiy.

Jahon moliyaviy inqirozi davrida jamg'arma va kooperativ muassasalar barqaror natijalarga erishishidan tashqari jamg'arma kassalari faoliyatining muvaffaqiyatli ekanligi hamda Germaniya hududlarining iqtisodiy rivojlanishiga mazkur muassasalarning hissasi yuqori bo'lganini bir qator ixtisoslashtirilgan tadqiqot natijalari ham tasdiqladi.

3-BOB. “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASI”GA ASOSAN BO‘SH PUL MABLAG‘LARINI BANKLARGA JALB ETISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Aholi bo‘sh pul mablag‘larini bank resurslarini oshirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Bugungi kunga kelib, banklar har qanday iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini hisoblanib, ular tomonidan taklif etilayotgan bank xizmatlari hajmi ham ortib bormoqda. Agar 1990-yil boshida banklar tomonidan mijozlarga ko‘rsatilgan an’anaviy va yangi bank xizmatlari hajmi 70 ga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, ushbu miqdor 400 dan oshadi⁶⁷. Banklar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish asosida amalga oshirilgan aktiv operatsiyalar miqdori 2009 – yilning o‘zida rekord darajani qayd etib, 96,4 trln. AQSH dollarini tashkil etdi⁶⁸. Holbuki, dunyo mamlakatlari tomonidan ishlab chiqarilgan jami yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmi 2014-yilga kelibgina 77 trln. AQSH dollaridan oshiqni tashkil etdi⁶⁹.

Tijorat banklarning yuqorida qayd etilgan ko‘rsatkichga erishishida, tabiiyki, ular tasarrufidagi moliyaviy resurslar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, banklar moliyaviy resurslarining asosiy qismini jalb etilgan mablag‘lar tashkil etadgani holda ular bank samarali faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bankning o‘z mablag‘lari, asosan, bankni tashkil etish va uni rivojlantirish bilan bog‘liq vazifani bajarsa, jalb qilingan mablag‘lar esa bankning barqaror daromad olish manbaasini ta’minlab turadi.

Jahon mamlakatlari banklaridan farqli ravishda mamlakatimiz banklarida aholi va xo‘jalik sub’ektlaridan mablag‘lar jalb qilish borasida bir qator muammolar mavjud hisoblanadi. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ko‘rib o‘tamiz:

⁶⁷ Mishkin F.S.”The Economics of Money, Banking and Financial Markets 7 th edition”. “Columbia University Press”. 2004. –page 229

⁶⁸ “Banking 2010”. TheCityUK Press. -7–8, pages

⁶⁹ “World Development Indicators database”, World Bank, 18 September 2015. -41-page

Birinchiidan, Respublikamiz banklari jami depozit bazasi standart darajada me'yoriy emas. Agarda tahlil qilinadigan bo'lsa, mamlakatimiz tijorat banklari umumiy depozit bazasida tranzaksion (talab qilib olinguncha) depozit va jamg'armalar salmog'i 2016-yil yakuni bo'yicha 57,18 foizni tashkil etdi⁷⁰. Bu esa xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan tranzaksion depozitlarning jami depozitlar tarkibida 30 foizdan oshmasligi zarurligi to'g'risidagi me'yor amalda emasligidan dalolat beradi. Bunday me'yorning o'rnatilganligi tranzaksion depozitlarning banklar uchun muhim va doimiy resurs bo'la olmasligi bilan belgilanadi. Bunday vaziyatni bartaraf etish uchun tijorat banklari tomonidan bo'sh mablag'larni jalb qilish uchun taklif etilayotgan muddatli depozitlarga va aholining muddatli omonatlariga to'lanadigan foiz stavkalarini oshirish yo'li bilan banklar umumiy depozit bazasida ijobiy o'zgartirish qilishga erishish mumkin.

Ikkinchiidan, mamlakatimiz tijorat banklarida aholi va xo'jalik sub'ektlardan bo'sh pul mablag'larini jalb qilishda hali ham qog'oz hujjatlar rasmiylashtirilishining juda ko'pligi. Agarda amaliyotda ko'rilsa, bank mijozlari o'z bo'sh pul mablag'ini bankda jamg'armaga qo'yishi uchun hujjatlarda 10 ta (undan ham ko'p bo'lishi mumkin) belgilangan joyga imzo qo'yishi zarur. Bundan tashqari, qabul qilingan bo'sh pul mablag'larini rasmiylashtirishda hujjatlar ketma-ketligining ko'pligi ham bu yerda kamchilik hisoblanishi mumkin. Bunday vaziyatda mamlakatimiz banklari amaliyotiga onlayn depozit turini rivojlantirish ijobiy natija berishi mumkin. Chunki onlayn depozitlar bilan ishlash davomida mijoz deyarli hech qanday qog'oz hujjatlariga duch kelmaydi va chekiladigan imzo o'rniga o'zining maxsus elektron raqamli imzosi yoki maxfiy kod o'rnatish orqali omonatni rasmiylashtirishi mumkin. Mamlakatimizdagi ba'zi banklarda ushbu turdagi bank mahsulotini joriy etishga deyarli asos qo'yilmoqda. Masalan, Turonbank tomonidan mijozlarning barmoq izlarini shaxsni tasdiqlovchi vosita sifatida ishlatila boshlanganligi hamda Trastbankda omonatga mablag' qo'yishda hujjatlarni onlayn to'ldirish xizmati taklif etilmoqda.

Uchinchiidan, mamlakat aholisining bank omonatlari bilan yaxshi

⁷⁰ "Ahor-reyting" agentligining 2016-yil yakunlari bo'yicha hisoboti. -41-bet.

tanishtirilmaganligi, ya'ni banklar tomonidan taklif etilayotgan omonat turlari bo'yicha yetarli darajada targ'ibot (reklama) ishlarining olib borilmayotganligi. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki mamlakatimiz banklarida aholini bank kreditlari bilan tanishtirish va ularga qulaylik yaratish maqsadida aholining uylariga borib bank xizmatlarini taklif etish amaliyoti davom etayotgan bir paytda, bank omonatlarining shartlari va qulaylik imkoniyatlari mavjud bo'lgan tarqatma materiallarni aholiga yetkazish muammoni hal qilishda biroz bo'lsada yordam berishi mumkin.

To'rtinchidan, banklarda yirik resurslar manbai hisoblanuvchi yuridik shaxslarning depozitlarini jalb qilish amaliyotida Markaziy bank majburiy zahira talabnomalarining yuqoriligi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklar tomonidan yuridik shaxslardan jalb qilingan depozitlarga nisbatan majburiy zahira stavkalarining darajasi 2009 - yilning 1 - sentabridan boshlab, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining o'rta va uzoq muddatli depozitlariga nisbatan majburiy zahira stavkalari yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha va muddatli depozitlari uchun 15 foiz, 1 yildan 3 yilgacha muddatga jalb qilingan depozitlarga nisbatan 12 foiz darajasida hamda 3 yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlar bo'yicha 10,5 foiz darajasida belgilangan.

Markaziy bankning majburiy zahira stavkalari xorijiy mamlakatlarda sezilarli darajada past bo'lib, ular tijorat banklarining kredit emissiyasiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmaydi. Masalan, majburiy zahira stavkalari darajasi xorijiy davlatlarda quyidagicha:

- Yevrozona banklarida-2 foiz;
- Rossiyada Federatsiyasi banklarida– 2,5 foiz;
- Qozog'istonda-1,5 %⁷¹ .

Beshinchidan, yuqoridagi muammolardan tashqari mamlakat aholisining banklarda o'z bo'sh mablag'larini joylashtirishiga xalal beruvchi bir qator sabablar

⁷¹ <http://www.ecb.eu> va <http://cbr.ru> saytlaridagi ma'lumotlar bo'yicha muallif tomonidan tayyorlandi

mavjud bo‘lib, ularga misol sifatida quyidagilarni ta’kidlashimiz mumkin:

- alohida zarur bo‘lgan pul mablag‘lariga nisbatan eytiyoj paydo bo‘lganda bankdagi omonatlardan foydalanish imkoniyatining chegaralanganligi;

-xorijiy valutadagi mablag‘larni bankka omonat sifatida joylashtirgandan ko‘ra, undan boshqa yo‘llar orqali foyda olish imkoniyatining mavjudligi;

- omonatlar bo‘yicha belgilanadigan foiz stavkalarining ushbu jarayonga qiziqtiruvchi va rag‘batlantiruvchi ta’sir kuchining pastligi;

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilishda mamlakatimiz banklarida hali ishga solinmagan imkoniyatlar mavjudki, ularni amaliyotga kiritish asta-sekinlik bilan ushbu yo‘nalishda ijobiy o‘zgarishlarga erishishga sabab bo‘lishi mumkin. Chunki, bugungi kunda O‘zbekistonda mobil to‘lovlar va “mobil banking” singari xizmatlar tobora ommalashib bormoqda. Misol uchun “Stolik” nomli ommabop ilova yordamida mobil to‘lovlarni depozitlar orqali amalga oshirish imkoni mavjud. Banklar ixtiyoridagi mavjud axborot-kommunikatsiya texnologiyalari potensiali orqali ushbu mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish, albatta, kelajakda o‘z ijobiy samarasini beradi.

Yuqoridagi imkoniyatlardan tashqari, tijorat banklar va uyali aloqa operator kompaniyalari o‘rtasida aholi bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish borasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham hali yetarli darajada rivojlantirilmagan imkoniyatlardan biri sanaladi. Bunda, banklarning uyali aloqa operatorlari bilan hamkorlik yo‘nalishi bank xizmatlari, omonat va kredit turlari bo‘yicha ma’lumotlarni uyali aloqa kompaniyalari mijozlariga SMS tarzida yuborishni rivojlantirishga qaratilishi lozim. Chunki, O‘zbekistonda mobil aloqa bilan qamrab olinish darajasi 62,28 foizga teng⁷² bo‘lgan sharoitda mobil operatorlarning mahalliy banklar bilan istiqbolli hamkorlik o‘rnatishi uchun salohiyati yetarli darajada.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, banklar tomonidan aholi va xo‘jalik sub’ektlarining bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha mavjud muammolarni

⁷² Muxtorova D. “Banklar va mobil operatorlar hamkorligining yangi bosqichi”. Bank axborotnomasi N24. 15.06.2017.- 9-bet

bartaraf etishda birinchi navbatda, bank marketingi orqali targ'ibot ishlarini olib borish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi so'nggi yutuqlarni banklarning moliyaviy resurs jalb qilish amaliyotiga tatbiq etishni rivojlantirish orqali hal etish mumkin.

3.2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi”ni amalga oshirishda bo‘sh pul mablag‘larini banklarga jalb etishni takomillashtirish yo‘llari

Ma'lumki, O‘zbekiston Osiyo qit‘asida iqtisodiyoti jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bunga, albatta, mamlakatimizdagi mavjud potensial, ya'ni tabiiy resurslarning yetarli ekanligi, ishchi kuchi, mutaxassis-kadrlarning bilim darajasining oshib borayotganligi, shu bilan birga, mamlakatimizda olib borilayotgan izchil, uzoqni ko‘zlab amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasidir. Bunday amalga oshirilgan islohotlar natijasini xorijiy mamlakatlarning ommaviy axborot vositalari, yirik moliya tashkilotlari ham e'tirof etishmoqda. Xususan, bu haqida Jahon bankining “Global iqtisodiy islohotlar” hisoboti asosida Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum) da O‘zbekiston dunyoning iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan mamlakatlar o‘nligiga kiritilganligi ma'lum qilindi. Jahon banki prognozlariga ko‘ra, O‘zbekistonning YaIM o‘sish prognozi 2017-yilda 7,6 foizni tashkil qildi ⁷³.

Ta'kidlash lozimki, yuqoridagi satrlarda Jahon banki tomonidan e'tirof etilgan yuksalish ko'rsatkichining asosiy sababchisi - mamlakatimizda qabul qilingan rivojlanish dasturlarining natijasi deb ko'rsatilgan. Shu o'rinda qayd etib o'tish lozimki, ushbu yutuqqa erishishga turtki bo'lgan eng asosiy rivojlanish dasturi sifatida joriy 2017-yilning 7-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni ijrosi natijalaridan biri deyishimiz mumkin.

Ushbu dastur bugungi kunda mamlakatimizda "olib borilayotgan islohotlar

⁷³ <http://www.Kun.uz/13.06.2017>

samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish"⁷⁴ni maqsad qilgan.

“Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish"⁷⁵.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Taraqqiyotining o'zbek modeli” da keltirilgan yo'nalishlarning uzviy davomi hisoblanuvchi ushbu “davlat dasturining yuqorida qayd etilgan barcha chora-tadbirlarini amalga oshirishga 37,7 trillion so'm va 8,3 milliard AQSH dollari yo'naltiriladi"⁷⁶.

Harakatlar strategiyasida keltirilgan yo'nalishlarda belgilangan vazifalar ijrosi mamlakatdagi barcha tarmoqlarni qamrab olgan bo'lib, ular faoliyatini kelajakda rivojlantirish ushbu dastur doirasida birin-ketinlik bilan amalga oshiriladi.

Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo'nalishi hisoblanuvchi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” doirasida mamlakatimiz banklari faoliyatining 2017-2021-yillarga belgilangan harakat yo'nalishlarini o'z ichiga olgan bo'lib, banklarda amalga oshiriladigan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha

⁷⁴ “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”. “Bank axborotnomasi” gazetasi. 16.02.2017-yil. -2-bet

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risi”da Farmoni SHARH. “Bank axborotnomasi” gazetasi. 16.02.2017. -3-bet

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risi”da Farmoni SHARH. “Bank axborotnomasi” gazetasi. 16.02.2017. -3-bet

kuzatuvni O‘zbekiston Markaziy banki va tijorat banklarning bank boshqaruvchilari olib boradi. Harakatlar strategiyasida belgilangan ulug‘vor vazifalarni o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish Markaziy bank olib borayotgan pul-kredit siyosatining ustuvor yo‘nalishlarida ham o‘z ifodasini topadi.

Yuqorida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar ijrosiga ko‘ra, “2017-2021–yillarda tijorat banklari jami kapitalini 2 baravarga, depozitlar hajmini, jumladan, omonatlarni 2,1 baravarga oshirish rejalashtirilib, bunday chora-tadbirlar, o‘z navbatida, moliya muassasalarida investitsion kreditlar hajmini 1,7 baravarga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari loyihalarini moliyalashtirishni 2,2 baravarga oshirish imkonini berishi kutilmoqda”⁷⁷.

Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishida yuqoridagi vazifalardan tashqari yana quyidagilar 2017-2021 - yillarda amalga oshirilishi belgilab o‘tilgan bo‘lib, ularning ijrosi mamlakatimiz banklari faoliyatini tubdan yaxshilash, ular samarali faoliyat yuritishi uchun qo‘shimcha mablag‘lar jalb qilishga qaratilgan :

- “Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, ayniqsa, valuta bozori holati ustidan tizimli monitoringni amalga oshirish, zaruriyat tug‘ilganda, milliy valyuta va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini oshirish, makroiqtisodiy muvozanatni saqlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashga yo‘naltirilgan qonunchilikni takomillashtirish”⁷⁸. Ushbu ustuvor vazifa ijrosi mamlakat valuta bozorini tartibga solgan holda bank mijozlari hisoblanuvchi omonatchilarning valutadagi mablag‘larini bank omonatlariga joylashtirishga va undan ishonchli daromad olishiga xizmat qilishi shubhasizdir. “Milliy valutaning va ichki bozordagi narxlari barqarorligini ta‘minlash”⁷⁹. Albatta, ushbu vazifa ijrosi natijasida mamlakatda ichki bozordagi milliy valuta barqarorligi ta‘minlagan holda, aholi birlamchi

⁷⁷ Mavlonova N. “O‘zbekiston bank tizimi: zamon talablariga mos qadamlar”. “Bank axborotnomasi” gazetasi. 16.02.2017. -5-bet

⁷⁸ 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi (8-ilova)

⁷⁹ 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi

ehtiyohlarga sarflangan xarajatlardan ortib qoladigan bo'sh pul mablag'larini hosil bo'lishini ta'minlashi tabiiy.

- "Naqdsiz hisob-kitoblar hajmi va qamrovini oshirish, iqtisodiyot sohalarida to'lovlarning zamonaviy elektron shakllarini joriy etish va tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantirish hamda bankdan tashqari aylanishini qisqartirish"⁸⁰. Ushbu ustuvor vazifani ijro etish asnosida, aholiga muayyan vaqt davomida belgilangan limit doirasida bank mablag'lari hisobidan tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi kredit kartalarini muomalaga kiritish, shuningdek, bank plastik kartalari orqali hisob raqamlarga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlaridan ("SMS-banking", "Internet-banking", "Mobil-banking") foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va bank plastik kartalari orqali jismoniy shaxslarning depozit hisob raqamlarini boshqarish yo'llarini kengaytirish imkoniyatlari yaratiladi. Demak, bitiruv-malakaviy ishida yoritgan aholi bo'sh mablag'larini banklarga jalb etishdagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar ijrosi aynan yuqorida keltirilgan ustuvor vazifada o'z aksini topgan.

- Bank kassalariga naqd pul tushumlarini rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Tabiiyki, ushbu vazifa ijrosi aholi tasarrufidagi naqd pullarni banklardagi jamg'armalarga joylashtirish va bu orqali bank rag'batlantirishlariga ega bo'lish imkonini beradi.

Yuqoridagi vazifalar ijrosini amalga oshirishni ta'minlash maqsadida 2017-yilning 17-iyunida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori imzolandi. Qaror ijrosiga ko'ra mablag'lar "Agrobank" ATB, "O'zbekiston TIF" Milliy bank", "Asaka bank" ATB, "O'zbekiston sanoat-qurilish banki", "Xalq bank" ATB, "Qishloq Qurilish Bank" ATB, "Ipoteka-bank" ATIB, "Mikrokreditbank" ATB va "Turonbank" kabi banklarga ularning "kapitallashuv darajasini ta'minlash, bank tizimi moliyaviy barqarorligini oshirish va ularning investitsion loyihalar va tadbirkorlikni moliyalashtirishda ishtirokini yanada

⁸⁰ 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi

kengaytirish maqsadida, Markaziy Bank, Moliya vazirligi va O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 2017-yilda tijorat banklarida davlat ulushlarining O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 500 million AQSh dollari ekvivalentiga oshirilishi”⁸¹ uchun beriladi.

Qarorga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga likvidlik taqchilligi yuzaga kelgan vaziyatlarda tijorat banklariga 3 oygacha muddatga ta‘minotsiz kreditlar berish mexanizmini joriy etish vazifasi yuklatildi. Bu kreditlar faqatgina to‘lovlarning uzluksizligini ta‘minlash maqsadida likvidlikni ta‘minlash uchun beriladi va ularni banklar kredit berish yo‘lida sarflashi mumkin emas.

Bu qaror ijrisi natijasida, mamlakatimizdagi yuqorida nomlari qayd etib o‘tilgan tijorat banklarining likvidlik darajasi yanada ortadi, shu bilan birga, ular bank omonatchilari va depozitorlari mablag‘lari bo‘yicha majburiyatlarni mijozlar talab qilishi bilanoq bajarish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi harakatlari ijrosi natijasida keyingi 5 yillikda asrlarga arzigulik o‘zgarishlar bo‘lishi kutilmoqda. Harakatlar strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishi hisoblanuvchi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi mamlakat iqtisodiyotini nafaqat rivojlantiradi, balki mamlakat iqtisodiyotining ”lokomotivi” hisoblanuvchi banklar faoliyatini ham yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

3-bob bo‘yicha xulosalar

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobi bo‘yicha quyidagi xulosalar qilish mumkin:

-. Jahon mamlakatlari banklaridan farqli ravishda mamlakatimiz banklarida aholi va xo‘jalik sub’ektlarining bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish borasida bir qator muammolar mavjud hisoblanadi. Mavjud muammolarni bartaraf etish,

⁸¹ <http://Kun.uz>. “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuv darajasini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori”.17.06.2017

birinchi navbatda, aholi bilan ishlash borasida alohida dastur ishlab chiqishni taqozo etadi. Chunki, aholi banklarga joylashtirgan oz miqdoridagi mablag'idan ham yetarli darajada daromad olishni xohlaydi.

- Mamlakatimizdagi tijorat banklarining jami depozit bazasi xalqaro standartlar bo'yicha me'yoriy emas. Banklarning yillik moliyaviy hisobotlari tahlil qilinganda, jami jalb etilgan mablag'lar tarkibida talab qilib olinguncha depozit (omonat) lar hajmi boshqa turdagi jamg'armalarga nisbatan juda yuqori miqdorga ega. Hattoki, mijozlar bo'sh pul mablag'larini jalb qilishda yetakchi bo'lgan banklarda ham talab qilib olinguncha depozitlar hajmi 1 trln. so'mdan ortiqni tashkil etadi.

- Mamlakatimiz banklari tomonidan aholi va xo'jalik sub'ektlarining bo'sh pul mablag'larini jalb qilish bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etishda birinchi navbatda, bank marketingi orqali targ'ibot ishlarini olib borish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi so'nggi yutuqlarini banklarning moliyaviy resurs jalb qilish amaliyotiga tatbiq etishni rivojlantirish orqali bartaraf etish mumkin.

- "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi harakatlar ijrosi natijasida keyingi 2017-2021 - yillarda asrlarga arzigulik o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda. Ushbu "Harakatlar strategiyasi" da keltirilganidek keyingi 5 yillikda mamlakatimizdagi tijorat banklarining jami kapitali 2 baravarga, depozitlar hajmi, jumladan, omonatlar 2,1 baravarga oshirish rejalashtirilib, bunday chora-tadbirlar, o'z navbatida, moliya muassasalarida investitsion kreditlar hajmini 1,7 baravarga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari loyihalarini moliyalashtirishni 2,2 baravarga oshirish imkonini berishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Aholi bo‘sh mablag‘larini banklarga jalb qilishning ahamiyati va uning bank resurslarini oshirishdagi o‘rni mavzusidagi bitiruv malaka ish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

- Aholi va xo‘jalik sub‘ektlari tasarrufdagi pul mablag‘lari ular uchun kelajakda ma‘lum maqsadlarni amalga oshirish uchun yig‘iladigan mablag‘ jamg‘arma hisoblansa, banklar uchun ushbu mablag‘lar aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uzun zarur bo‘lgan eng qulay moliyaviy resurs hisoblanadi. Aholining banklarda jamg‘armalar qilishga intilishiga bevosita ula yashayotgan mamlakatda aholi uchun yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va qulayliklar, ularga xos bo‘lgan mentalitet kabi omillar ta’sir etadi.

- Mamakatimizda aholi bo‘sh pul mablag‘larini banklar amaliyotiga jalb etish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy asos yetarli darajada bo‘lib, u bir tomondan bankka pul mablag‘larini joylashtirgan omonatchilarning foiz ko‘rinishidagi daromadlari kafolatlanganligini tasdiqlasa, boshqa tomondan, ushbu bo‘sh pul mablag‘laridan foydalanuvchi banklarga ushbu moliyaviy resurslarni amaliyotda ishlatish bilan bog‘liq qonun-qoidalarni belgilaydi

- Mamlakatimizda aholi bo‘sh pul mablag‘larini banklarga joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan qonunchilik bazasiga ko‘ra, aholi o‘z bo‘sh pul mablag‘lari orqali 4 xil turdagi omonat shakllaridan foiz ko‘rinishida daromad olishlari mumkin. O‘z navbatida banklarga joylashtirilgan ushbu mablag‘lardan moliyaviy resurs sifatida foydalanuvchi moliya muassasalari foyda olish bilan bog‘liq (aktiv) operatsiyalari orqali marja ko‘rinishida daromad oladilar.

- Aholi bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish bilan bog‘liq bank amaliyotini samarali tashkil etgan “Ipoteka-bank” ATIB ushbu sohada ko‘proq jamg‘arma (komunal, maxsus) kassalarini aholining talab va takliflarini hisobga olgan holda tashkil etgani va joylashtirgani hisobidan 2016-yil yakunlariga ko‘ra “Aholi omonatlarini jalb qilish bo‘yicha yilning eng yaxshi banki” nominatsiyasida 1-o‘ringa loyiq ko‘rildi, shu bilan birga, mijozlardan jalb qilingan mablag‘lari hajmini 3 trln. so‘mdan ortiqqa yetkazdi.

- Banklararo raqobat sharoitida aholi bo'sh pul mablag'larini banklarga jalb qilish borasidagi mavjud holat tahlili natijalariga ko'ra mamlakatimizdagi banklar ushbu sohada 3 xil guruhda tasniflanishi mumkin.

- Xalqaro bank amaliyotida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini banklar amaliyotiga jalb qilishda erishilgan asosiy yutuqlarning zahirida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bank amaliyotiga jalb etish yotibdi, shu bilan birga, aholining kam daromadga ega bo'lgan qatlamlarini itisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida ham ularni bo'sh pul mablag'larini bank amaliyotiga jalb etish kamdam-kam mamlakatlar bank amaliyotida uchraydi.

- Mamlakatimizda aholi bo'sh pul mablag'larini bank amaliyotiga jalb qilish sohasidagi asosiy muammolar sifatida Respublikamiz banklari jami depozit bazasining standart darajada me'yoriy emasligi, aholi bo'sh pul mablag'larini jalb qilish bilan bog'liq amaliyotda hali-hamon qog'oz hujjatlashtirishning keng miqyosda ekanligi, banklar tomonidan aholi bo'sh pul mablag'larini jalb qilish bilan bog'liq amaliyotda zamonaviy bank marketingidan foydalangan holda targ'ibot ishlarining sust olib borilayotganligi va mamlakatda xorijiy valutagi bo'sh pul mablag'i mavjud aholini bankda jamg'arma saqlashdan yetarli darajada manfaatdor emasligini ta'kidlash lozim

- Yuqoridagi muammolarning yechimi sifatida 2017-yilning 7 - fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotga ishlarni ta'kidlashimiz mumkin. Chunki, unda belgilangan vazifalar ijrosi natijasida banklarning aholi bo'sh pul mablag'lari bilan ishlash va moliyaviy resurslarni jalb qilish borasidagi faoliyatiga tubdan sifat o'zgarishlar yasalishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan xulosalar va mavjud muammolar mazmunidan kelib chiqqan holda biz aholi va xo'jalik sub'ektlari bo'sh pul mablag'larini bank amaliyotiga jalb qilishni rivojlanirish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi takliflarni bermoqchimiz:

Birinchiidan, aholi bo'sh pul mablag'larini bank amaliyotiga jalb qilishda uning shaklidan qat'iy nazar bir xil miqdorda foizlar va imtiyozlar belgilanishi lozim. Chunki, ayni paytda mamlakatimizda pullarning naqd shaklidagi massasidan ko'ra naqdsiz shakldagi massasi ko'p hisoblanadi. Boshqa tomondan esa, ushbu resurslardan foydalangan holda amalga oshiriladigan kredit operatsiyalarining deyarli barcha qismi naqdsiz shaklda yoki pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshirilayotganligi ham bunday munosabatni amaliyotga joriy etishni tasdiqlaydi.

Ikkinchiidan, aholi bo'sh pul mablag'larini qabul qiluvchi jamg'arma kassalarni tashkil etishda aholi hajmi, ularning daromadlari darajasi, aholi punktining shahar yoki tuman markaziga nisbatan joylashganlik darajasi kabi omillarni inobatga olish lozim.

Uchinchiidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda banklar amaliyotiga onlayn depozitlarni joriy qilish lozim. Chunki, ulardan foydalanish bir tomondan mablag' qo'yuvchilar vaqtini tejasa, boshqa tomondan banklarning ma'muriy xarajatlarini qisqarishiga olib keladi. Bundan tashqari, mamlakatimiz banklarida mavjud bo'lgan qog'oz - hujjatchilik ishlarini ham kamaytiradi. Ushbu turdagi xizmatni qo'llash quyidagi jihatlar bilan foydali hisoblanadi:

- doimiy foydalanish imkoniyati;
- mijozlar uchun jozibador daromad olish imkoniyati, shu bilan birga, banklar uchun ortiqcha xarajatlarni kamaytirish imkoniyati;
- aholining keng qatlami uchun qulay va oddiy interfeys;
- mablag'larni bankka joylashtirishda masofa omilining mavjud emasligi;

To'rtinchiidan, kam hajmdagi daromad manbaiga ega bo'lgan aholining manfaatlaridan kelib chiqib, ularning bo'sh pul mablag'larini bank amaliyotiga jalb etish va ushbu resurslardan foydalanish uchun mablag' egalariga bank xizmatidan qo'shimcha imkoniyatlar yaratib berish.

O'ylaymizki, yuqorida keltirib o'tilgan takliflar aholi bo'sh pul mablag'larini bank amaliyotiga jalb etishda ahamiyatli rol o'ynaydi va ulardan ham omonatchilar ham banklar manfaatdor bo'lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. “O‘zbekiston Respublikasi Kodekslari” to‘plami. Toshkent. “Adolat”. 2014-yil
2. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida” qonun. 21.12.1995-yil
3. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun 25.04.1996-yil
4. “Bank siri to‘g‘risida”gi qonun. 30.08.2003-yil
5. “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun. 26.08.2004-yil
6. “Bank tizimini isloh qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 102-sonli qarori. 24.03.2000-yil
7. “Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-56-qaror. 15.05.2005-yil
8. “Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-726-sonli qaror. 07.11.2007-yil
9. “Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-3968-sonli Prezident farmoni. 20.02.2008-yil
10. “Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-4057-son prezident farmoni. 28.11.2008-yil
11. “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2344-sonli qarori. 28.11.2008-yil

12. “O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom. Adliya vazirligida 26.08.2015–yilda 2711- son bilan ro‘yxatdan o‘tgan

13. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi (8-ilova)

14. “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori.16.06.2017-yil

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risi”da Farmoniga
SHARH

2. Darslik va o‘quv adabiyotlar

16. Abdullayeva Sh.Z., Karimov F.Sh. va boshqalar. “Aholi omonatlarini kafolatlash tizimi III kitob”. T: “Iqtisod-Moliya”. 2006

17. Azizov U. O‘. va boshqalar. “Bank ishi”. Darslik.T: Iqtisod-Moliya

18. Axmedov D. Q. va boshqalar. “Makroiqtisodiyot”. Darslik. T: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti.2004.-46-bet

19. “Банковское дело”. Под редакцией Г.Н Белоглазовой. Кроливецкой. –М. 2010. -ст. 22-23

20. Marshall A. “Principles of political economy”. Moscow. Progress. 1984. -47-page

22. Madatov Sh. N. Dissertatsiya ishi. “Tijorat banklarining jismoniy shaxslar bilan depozit operatsiyalarini takomillashtirish”.O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi. 2016

22. Mishkin F.S.”The Economics of Money, Banking and Financial Markets 7 th edition”. “Columbia University Press”. 2004. –page 229

23. Parpiyev B. B. “Tijorat banklari depozitlariga bo‘sh pul mablag‘larini jalb etishda marketing faoliyati samaradorligini oshirish “.Monografiya. Toshkent-“Iqtisodiyot”-2014. -8-9-betlar

24. Razzoqov A. Tashmatov Sh. va O‘rmonov N. “Iqtisodiy ta‘limotlar tarixi”. Darslik. T: Iqtisod-Moliya. 2007. -241-bet

25. Xadjayev F. S. Bakiyeva I. A Fayziyev Sh. Sh. “Makroiqtisodiyot”. O‘quv qo‘llanma.T: Iqtisod-Moliya.2014.-65-bet

3. Davriy nashrlar (gazeta vajurnallar)

26. Akromov B. “Aholi omonatlarini jalb qilishda faol banklar”. “Bank axborotnomasi”.09.02.2017-yil. -12-bet

27. Mirzayev M. “Ipoteka-banki: Mijozlarga imkoniyat yaratuvchi bank”.”Bozor, pul va kredit” jurnali.12/2016 (235). -42 -43 –betlar

28. Muxtorova D. “Banklar va mobil operatorlar hamkorligining yangi bosqichi”. Bank axborotnomasi. N24. 15.06.2017. -9-bet

29. Haydarov A. “Omonatlar - moliyalashtirishning muhim manbai” “Bozor, pul, kredit” jurnali.12/2016(235).-31-bet

30. Mavlonova N. “O‘zbekiston bank tizimi: zamon talablariga mos qadamlar”. “Bank axborotnomasi” gazetasi. 16.02.2017. -5-bet

31. Jo‘rayev I. “Hududiy bank tizimi rivoji va diversifikatsiyalashuvi: Germaniya tajribasi”. “Bank axborotnomasi” gazetasi. 26.05.2017. -10-bet

32. “Ahbor-reyting” agentligining yillik hisobotlari

33. “Bank axborotnomasi” gazetasi

34. “Ipoteka-bank” ATIB yillik hisobotlari

35. “Ipoteka-bank” ATIBning “Bank axborotnomasi” gazetasida 27.04.2017-yil sonida chiqarilgan moliyaviy hisoboti .12/2016. -42 -43 –betlar

36. Monetar siyosatning 2017-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. Bank axborotnomasi. No: 6. 09.02.2017-yil

37. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”.
“Bank axborotnomasi” gazetasi. 16.02.2017-yil. 2-bet

38. “World Development Indicators database”, World Bank, 18 September 2015

4. Internet saytlari

39. <http://www.USBankLocations.com>

40. <http://www.justlanded.com>

41. <http://www.Wikipediya.com>

42. <http://www.ecb.eu>

43. <http://www.cbr.ru>

44. <http://www.Kun.uz>